

TOJIBOYEVA GULMIRA RIFOVNA

373  
T-18

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM  
O'QITUVCHILARING KASBIY  
KOMPETENTLIGINI RIWOJLANTIRISH

373

T-18.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**TOJIBOYEVA GULMIRA RIFOVNA**

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM  
O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH**

**MONOGRAFIYA**

-4402/x-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**  
1-FILIALI

**CHIRCHIQ-2023**

**Tojiboyeva G.R.** / Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarinig kasbiy kompetentligini rivojlantirish / Monografiya. - Toshkent: «Zebo Prints», 2023. – 128 bet.

Mazkur monografidan maqsad bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlanishini ta'minlovchi shaxsiy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, omillari va usullarini o'rGANISH.

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlarga muvofiq kasbiy kompetensiyalarni aniqlash mezonlari kompetensiya tushunchasining tadrijiy rivojlanishini ta'limga oid ilg'or chet el tajribalarini milliy qadriyat, urf-odat va an'analarimizga bilish, tushunish va taqqoslash metodlari orqali konstruktiv moslashtirish asosida aniqlashtirish tizimini o'rGANISH kabi muammoni yechish imkoninini beradi.

#### Taqrizchilar:

**D.T.Pulatova** - XTXMOQTI, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent,

**A.Kuchkinov** - ChDPU, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Ushbu monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2023 yil 11 noyabrdagi 17 sonli yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-751-56-1

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI DİY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSİTESİ

AXBOROT RESURS MARKAZI

#### MUNDARIJA

	Kirish	4
I bob	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy - metodologik asoslari	9
1.1 §	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning konseptual asosi sifatida	9
1.2 §	Kasbiy kompetentlik tushunchasining ilmiy-pedagogik asoslari.....	24
1.3 §	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi tarkibi, mezonlari va darajalari.....	45
II bob	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi va didaktik ta'minoti	56
2.1 §	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	56
2.2 §	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metod, shakl va vositalari.....	70
2.3.	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ishlari samaradorligi ...  Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.....	80
		108

## KIRISH

Jahonda "global kompetensiya jamiyat" [144]ning paydo bo'lishi ham jahon iqtisodiyotini, ham ta'lif tizimining mavqeini o'zgartirishi qayd etilmoqda. Globallashuvning jadallahuvi va texnologik o'zgarishlar sur'ati tufayli dunyo misli ko'rilmagan - ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar bizga insoniyat taraqqiyoti uchun ko'plab yangi imkoniyatlar bermoqda. Ta'lif insoniyatga harakat va maqsad erkinligini, shuningdek, o'z hayotini shakllantirish va boshqalarga bu borada yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan vakolatlarni berishi mumkin. Buni qanday qilib eng yaxshi tarzda amalga oshirishni bilish uchun "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti" (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD) "Ta'lif va malakalarning kelajagi 2030" loyihasi [164] negizida ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning samaradorligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning natijasida jahon ta'lif tizmida o'ziga hos yagonalashgan jarayon tarkib topmoqda. Bu borada yangicha yondashuvlarga asoslangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib bormoqda.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lif muassasalarini va ilmiy tadqiqot markazlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatini tizimi ravishda tushunish, nufuzini oshirish, uning milliy va jahon hamjamiyatidagi o'rnini obyektiv baholash, shuningdek, ta'lifni yanada isloh qilishga tayyorlik darajasini aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar ta'lif muassasalarida innovatsion iqtisodiyot va raqamli jamiyatning jadal rivojanishini ta'minlovchi inson kapitalini shakllantiruvchi yangicha yondashuvlarning asosida ta'lif muhiti yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Taraqqiyotning asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan sifatlari kasbiy ta'lifga sarmoya kiritish strategik masalaga aylanib, u orqali inson kapitalini rivojlantirish doirasida kompetentli o'qituvchilarini tayyorlashga ehtiyoji ortib bormoqda. Bu borada dunyo mamlakatlari tizimida TALIS (Teaching and Learning International Survey), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study), PISA(The Programme for

International Student Assessment), PIRLS(Progress in International Reading Literacy Study) kabi xalqaro dasturlar asosida milliy va jahon xalqaro ta'lif tajribalarini uyg'unlashtirish jarayoni kechmoqda. Bu jarayonda boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining yuksak darajada kasbiy va amaliy kompetensiyalariga ega bo'lishi taqozo etilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviyatloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan uzlusiz ta'lif tizimini barpo etish maqsadlari belgilandi<sup>1</sup>. Bu borada yangi zamonaviy paradigmalar, yondashuvlar negizida milliy kadrlarni tayyorlash, xususan, boshlang'ich ta'lif bilan bog'liq muammolar mutaxassislarining, manfaatdor tomontarning keng e'tiborini tortmoqda. Bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish oliy ta'lifning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-soni "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[1], 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-soni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[2], 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-soni "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[5] farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagagi PQ-4623-soni "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[6], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-soni "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[8] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-soni Farmoni, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y.

**Muammoning o'rganilganlik darjasи.** Mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilarни tayyorlashning pedagogik jihatlari R.Sh.Axliddinov, J.G.Yo'ldoshev, R.H.Jo'rayev, R.B.Yarmatov, N.A.Muslimov, M.B.Urazovalar tomonidan; O.M.Musurmanova, N.N.Karimova, N.M.Egamberdiyeva, S.T.Turg'unovlarning ilmiy izlanishlarida bo'lajak pedagoglar kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, integral-pedagogik jihatlari; oliy ta'lim tizimida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ayrim jihatlari Sh.A. Abdullayeva, J.E.Usarov, N.Sh.Jumanova, O.A.Qo'yсинов, A.X.Maxmudov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan R.A.Mavlonova, Sh.Q.Mardonov, B.Ziyamuxammadov, N.S.Sayidaxmedov, M.A.Ochilov, N.Azizxodjaeva kabi olimlarning tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va pedagogikaning zamonaviy paradigmalari muammosi mamlakatimizda R. Safarova, B.Xodjaev, D.D.Sharianova, X.A.Shayxova, G.X.Tillayeva, G.Burxanova, N.Indiaminov, B.Babajanov kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari V.A. Adolf, V.I.Baydenko, V.A.Bolotov, O.M.Bobiyenko, Yu.G.Tatur, A.V.Xutorskoy, K.E.Bezukladnikov, T.G.Braje, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, A.M.Novikov kabi pedagog-olimlarning ilmiy-uslubiy ishlarida; boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi Yu.V.Trofimenko, Ye.V.Maltseva, N.L.Dmitriyeva, M.V.Shustova, T.M.Sorokina, N.V.Kolpakovalar ilmiy izlanishlarida atroficha muhokama etilgan; A.S.Danilova, L.V.Zankov, N.Nikitina, X. Y. Leyments, V. A. Suxomlinskiy, D. Ye. Elkonin, N. A.Alekseyev, A.G.Asmolov, V. N.Atutov, M.A.Gavrilova, G. K. Selevko, P. F. Kapterev, P.P.Blonskiy, S.T.Shatskiy, Z.I.Vasileva, I.A.Kolesnikova, V.V.Serikov, I.S.Yakimanskayalarning izlanishlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari ilmiy bayon etilgan.

Xorijiy ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati S.Byuler, A.Maslou, K.Rodgers, V.Frankl, N.Robert Uayt, Jon Raven, Noam Xomskiy, Levi Shtraus, Jeykob Moreno, E. Turxart, S. Blemeke, J. Zheng, G. Leman, V. Nike, M. Lyovish, R.

Boyatzis, D. Bartram, V. Xatmacher, Bernxard, V. Bloom, X. Markus va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Xorij olimlaridan Biemans, Wollersheim H.W., Goodman, Kagan, Kraler, G.Lehmann, L.Spenser, E.Terhart, N. Robert Uayt, J.Zheng, J. Erpenbeck, Ayris van Verven, Robert Dj. Koelen, Ellen Yansen, V. Xoffman, An Soxun, I. B. N.Mantra, I. N.Suwandi, N. L.Sukanadi, N. K. W.Astuti & Indrawati global miqyosda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kompetentligi masalalarini tadqiq etgan. D.Raufelder, K.Drury, D.Jagenow, F.Hoferichter & W.Bukowski (2013), Urshulya Ordon ishlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv psixologik asoslari va tamoyillari ochib berilgan.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlar tahibili shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va unga muvofiq zamonaviy didaktik ta'minot hamda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligini ko'rsatmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi** shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni belgilash mezonlarini aniqlashtirish;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik modelini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, klassifikatsiyalash va differensiatsiyalash, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, so'rovnama, test, suhbat, modellashtirish, tashxis,

pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalananilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

zamonaviy yondashuvlarga muvofiq kasbiy kompetensiyalarni aniqlash mezonlari kompetensiya tushunchasining tadrijiy rivojlanishini ta'limga oid ilg'or chet el tajribalarini milliy qadriyat, urf-odat va an'analarimizga bilish, tushunish va taqqoslash metodlari orqali konstruktiv moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik modeli shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillarini talabalarning rivojlanish vektori va individual ta'lim traektoriyasiga izchillik asosida muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid didaktik ta'minot talabalarning kasbiy professiogrammasi, kompetentlik kundaligi, kompetensiyalar doirasi hamda standart ramkasini integrativlik darajasini kengaytirib borishga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlarini invariant qo'llash hamda o'qitish metodlarini vitagen ta'lim texnologiyalariga pragmatik va empirik jihatdan moslashtirish orqali takomillashtirilgan.

## **I BOB. SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY- KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI**

### **§ 1.1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishning konseptual asosi sifatida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi "O'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" [10] nomli nutqida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, sohadagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning milliy xususiyatlarini o'rganish hamda ularni amaliyotga joriy etish yo'llarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish, ta'limdagi hozirgi muammolarni hal qilish, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olinishi dolzarb masaladir. "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi [3] 60 sonli Prezident farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan bo'lib, u 7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan, uning to'rtinchisi yo'nalishi "Adolatlilik, ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlanadi. Ushbu yo'nalishning 44-maqсадади maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish maqsadi belgilab olindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev mакtabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmasligini bejiz ta'kidlamagan [146]. Demak, bugungi kunda o'qitish uslubiyotini takomillashtirish, uni xorijiy tajribalar bilan boyitish yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga qaratilmoqda, ya'ni mutaxassisning yangi modelini ishlab chiqish talabini keltirib chiqarmoqda - bu keng ko'lamli umumiyl madaniy, maxsus kompetensiyalarga ega, yangi kasbiy talablar va mehnat sharoitlariga tezda moslasha oladigan va munosib javob bera oladigan mobil mutaxassis bo'lishi kerak. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan

jamiyatda ishslash va yashashga tayyor professional o'qituvchilarni tarbiyalash oliy pedagogik ta'lif tizimining strategik vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda oliy ta'lifning kompetensiya paradigmaсиiga o'tishi dolzarblashmoqda. Ushbu fikr zamirida ta'lif sifatini ta'minlovchi SHAXS - o'qituvchiga, u tomonidan olib borilayotgan kasbiy faoliyatga bo'lgan talablarning tamomila yangilanishi nazarda tutildi.


O'zbekistonda oliy ta'lif tizimida tub islohotlar olib borilmoqda. Mazkur tizimli islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, oliy ta'lif sifati va modernizatsiyasi nuqtai nazaridan zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [2] qabul qilindi.

Oliy ta'lif muassasasining muhim vazifalaridan biri bo'lajak mutaxassislarga kasbiy pedagogik faoliyatni zamon talablari darajasida amalga oshirish imkoniyatini yaratish hamda mutaxassis darajasiga erishish uchun talabalarni mustaqil ish va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ko'niktirishdan iborat.

Ushbu dolzarb vazifalarni hal etishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning imkoniyatlari beqiyosdir. G. T. Burxanova va V. Varganing fikricha, an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lif muhiti o'quvchining imkoniyatlariga moslashtirilganligini ko'rsatadi, ya'ni butun ta'lif muhiti va pedagogik shart-sharoitlar o'quvchilarning alohida o'quvchilariga moslashtiriladi va maqsadli yo'naltiriladi. Buning natijasida o'quvchining tafakkuri, dunyoqarashi sayqallanadi, shaxsiy fazilatlari takomillashtiriladi [30].


Pedagogik ta'lif nazariyasida ko'plab tushunchalar, qoidalar, tamoyillar va yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular shaxsiy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga yo'naltirilishi mumkin. Ushbu yondashuv astasekinlik bilan Ball, I.D. Beh, R.S. Gurevich, V.V. Davidov, I.A.Zyazyun,

A.S. Makarenko, V.A.Molyako, N.G.Nichkalo, A.V.Petrovskiy, B.A.Suxomlinskiy, B.A.Fedorishin, I.S.Yakimanskaya kabi mashxur olimlarning nazariyalarida sayqallanadi. Shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lifni belgilaydigan nazariy va uslubiy qoidalar to'plami E.V. Bondarevskaya C. V. Kulnevich, T.I.Kulpina, V.V.Serikov, G.K.Selevko, A.V.Petrovskiy, V.T. Abramova, N.N.Kuklina, L.V. va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida keltirilgan [65; 37 - b.] (1.1.1(a) - rasm).



### 1.1.1(a)-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar

O'zbekistonda shaxsga yo'naltirilgan ta'lif yuzasidan B.R.Adizov, G.T.Burxanova, B.Ma'murov, S.Nishanova, R.Safarova, D.D. Sharipova, E.A.Seytxalilov, K.Xoshimov, F.R.Yuzlikaev, E.Yuzlikaeva va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan. (1.1.1(b)-rasm).



### 1.1.1(b)-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv(ShYY) pedagogikada metodologik vazifani bajaradi. T.A.Vlasova o'z ilmiy izlanishlarida

shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni o'quvchi shaxsining o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini qurish va o'z-o'zini bilish jarayonlarini, uning o'ziga xos tomonlarini rivojlantirishni dialektik aloqador tushunchalar va harakat usullari tizimiga asoslanib belgilaydi. [123; 56 – b.].

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini o'rganish, ta'limdagi to'siqlar va ziddiyatlarni tashxis va bashorat qilish hamda bo'lajak mutaxassisning imkoniyatlari, qobiliyatlarini va qiziqishlariga mos ravishda ta'lim traektoriyasini korreksiyalash imkonini beradi. Kasbiy kompetentlikni aniqlash bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida o'quv dasturlarining vazifalari belgilanishi, o'qitish mazmuni va metodlari tanlanishi, ta'lim sifatining muassasalar uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan mezon va ko'rsatkichlari aniqlanishi lozim.

90-yillarning oxiriga kelib o'quvchi shaxsini rivojlantirish ta'limini insonparvarlashtirishga, shaxs va ta'lim uyg'unligini ta'minlashga katta ahamiyat berildi. O'qitishni faqat shaxsning bilish sohasini rivojlantirishga qaratilgan tamoyillar asosida olib borish zamonaviy talablarga mutlaqo to'g'ri kelmasligi aniq bo'ldi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv BBTO'ning intellektual, kasbiy va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda professional kompetentligini rivojlantirishligini anglatadi.

Zamonaviy pedagogikada shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga bo'lgan talabning bir qator obyektiv sabablari mavjudligini ta'kidlamoqchimiz:

Jamiyatning tez sur'atlarda rivojlanishi keng qamrovli kasbiy vazifalarni mustaqil hal qila oladigan, ijodiy izlanish qobiliyatiga ega, o'zini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladigan mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan talab [43; 19-b.];

An'anaviy ta'lim jarayonlari o'zining kamharakatligi, inertligi tufayli kompetentli mutaxassislarni tayyorlashga imkon bermaydi;

Muayyan vazifalarni bajarishda mutaxassislarning kasbiy malakasining asosini tashkil etuvchi shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini hisobga olish zarurati;

Zamonaviy oliy o'quv yurtlarida talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtaсидаги муносабатларни итиqlashtirish,

insoniyashtirish asosida talaba shaxsiyati, uning qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab o'qitish zarurati;

qat'iy kasbiy takomillashtirishdan voz kechib, mutaxassislarning shaxsiy salohiyatini kasbiy rivojlantirishga o'tkazish ehtiyoji [140; 32 – b.].

BBTO' kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik jarayon bo'lib, uning talablari va imkoniyatlari uyg'unligiga asoslanadi, bu uning subyektivlik, muloqot, erkinlik, o'z-o'zini anglash va o'zini namoyon qilish kabi asosiy belgilarida namoyon bo'ladi. Kasbiy faoliyatda to'liq o'z-o'zini anglash - rivojlangan kasbiy kompetentlikning o'ziga xos xususiyatidir. Demak, o'qituvchi shaxsini subyekt sifatida rivojlantirish muammosini hal etish pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini bilishga bog'liq. Shu bilan birga, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy malakasini rivojlantirish uning asosiy psixologik-pedagogik fazilatlariga e'tibor qaratishiga bog'liq bo'lib, kasbiy mahoratining asosini tashkil etuvchi kasbiy kompetentligi bilan uzviy aloqadorligi mavjud.

Boshlang'ich ta'limda o'qituvchilik kasbining mazmum-mohiyati o'zgarmasada, uning mazmuni, mehnat sharoiti, miqdoriy va sifat tarkibi o'zgaradi, shuning uchun professor-o'qituvchilar kasbiy ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatadigan, kasbiy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda shuni hisobga oladilar.

Ta'limda shaxsga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash uchun ma'lum shart-sharoitlar ta'minlanadi. V.V.Serikov ilmiy ishlariда ular haqida fikr yuritar ekan, boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolarini ilmiy dasturlarda aks ettirishni tavsiya qiladi. O'quv faoliyatida BBTO' his-tuyg'ulari va fikrlarning uyg'unligiga erishish lozimligini ta'kidlaydi. U o'quvchi bilan ishonch munosabatlarini o'rnatish, tarbiyaviy fikr-mulohazalarni tinglash, ularni to'g'ri qabul qilish, tushunish, kerak bo'lsa, tuzatish zarurligini ta'kidlaydi. V.V.Serikov o'quv materiallarini va faoliyat vositalarini asoslantirilgan rozilik bilan erkin tanlash imkoniyatiga alohida e'tibor qaratadi va o'quvchining shaxsiy rivojlanishi uchun o'zining ichki imkoniyatlarini aniqlash va ko'rsatish istagini ta'kidlaydi [96; 18 – b.].

Ma'lumki, inson kapitali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, mahsulot sifatini yaxshilash maqsadida yanada samaraliroq

texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishning eng muhim omilidir. Ilmiy-teknikaviy taraqqiyot natijalarini asosida yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llash darajasi "turli mamlakatlarda nafaqat ularning moddiy resurslar darajasi bilan, balki ko'proq darajada jamiyatning yangi bilimlarga ega bo'lishi, uni qayta ishlash va qo'llash darajasi bilan ham belgilanadi. Bu, o'z navbatida, ta'larning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqidir" [48; 9 - b.].

Bizning fikrimizcha, oly ta'limga muassasalarida ta'limga mazmuni uchun ijodiy va innovatsion shart-sharoitlarni yaratish, talabaning ilmiy va kasbiy saviyasini doimiy ravishda oshirishni rag'batlantirish, mustaqil ta'limga olish qobiliyatini oshirish zarur, bu esa talabalarning harakatchanligi va raqobatbardoshligini oshiradi hamda bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligini ta'minlanishiga olib keladi.

Zamonaviy rasmiytalimda asosiy yondashuvlar mavjud bo'lib, bular an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'limga. Har bir yondashuv pedagogik nuqtai nazar va o'qituvchi faoliyatini tamoyillariga asoslanadigan "o'qituvchi-shogird" tizimining alohida munosabati bilan tavsiflanadi. Aytish kerakki, ta'limga muassasasida ta'limga va tarbiyaga yondashuv turlicha bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar, ma'muriyat va o'qituvchi, o'qituvchi va ota-onalar, direktor va o'qituvchi o'rtaсидagi munosabatlarda namoyon bo'ladi, ya'ni "yondashuv" ierarxik universal tushunchadir.

An'anaviy yondashuv o'qituvchilarining avtoritar ustunlik pozitsiyasiga asoslanadi, reproduktiv o'qitish usullaridan foydalanish va o'qituvchilar tomonidan talabalarning faoliyatini qat'iy nazorat qilish bilan birlashtiriladi. Ta'limga mazmunida an'anaviy mehnat qilayotgan o'qituvchilar, asosan, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ko'radi. O'qituvchining o'zi doimiy ravishda ma'muriyatning qattiq nazoratida bo'ladi, bu esa o'qituvchining dars mavzusini tanlashda yoki subyektiv yoki obyektiv sharoitga qarab o'zgartirishda ijodiy faolligi va mustaqilligini pasaytiradi. To'satdan tekshirish tahdidi ostida o'qituvchilar darslarni qayta-qayta sinovdan o'tgan, "ishonchli" rejalar bo'yicha o'tkazishni, ishning yangi usullari va shakllarini kiritmaslikni, talabalar bilan faqat dars mavzusi doirasida, uning chegaralarini buzmasdan muloqot qilishni afzal ko'radilar. Ijodiy nuqtayi nazardan "dangasa" o'qituvchi talabaning ijodkorligi va ish

samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida u zerikib qoladi, mustaqil fikrlash va harakat qilish imkoniyati cheklanadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'zini anglash va faol pozitsiyani egallashga qodir erkin ijodiy shaxsni shakllantirishga qaratiladi. O'qituvchi demokratik yetakchilik uslubidan foydalananadi va ta'limga mazmunini bilim va malakalar yig'indisi sifatida emas, balki o'quvchining intellektual, hissiy-psixologik rivojlanishining manbai sifatida ko'radi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tufayli o'qituvchi o'quvchini darsda g'ayrioddiy savollar va muammolar bilan jalb qilishga va har bir talaba o'zining eng yaxshi tomonlarini ko'rsatishi mumkin bo'lgan standart darsdan tadqiqot darsini yaratishga harakat qiladi. O'qituvchi o'z mavzusini talabaga yuklamaydi, ular bilan birgalikda o'z fanini bilishga yetaklaydi. Ta'limga muassasasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida yaratilgan erkin ijod muhitida o'qituvchilar o'quv materialiga o'tishlari yoki o'quvchining ehtiyojlariga qarab mavzuni chuqur o'rganishlari mumkin. Talabalarning muhim ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali integratsiyalashgan ta'limga shakllaridan foydalaniib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabaning ijodiy, zamonaviy va kreativ bilim olishiga xizmat qiluvchi o'qitish usullarining innovatsion shakllari joriy etilmoqda. Kichik art-tadqiqot, evristik tuzilma, muammoli taqdimot kabi yangi zamonaviy usullar guruh va juftlik, individual va frontal formatda ishlataladi. Bunday yondashuv bilan nazorat va baholash vazifalari o'qituvchining mutlaq vakolatiga kiritilmaydi, balki o'z-o'zini tekshirish va o'zaro nazorat qilish usullari to'g'ri joriy qilinadi va talabalar o'z-o'zini baholash huquqiga ega bo'ladilar. Natijada, talabaning o'quv dialogiga faol qo'shilishi tufayli intensiv shaxsiy rivojlanish mavjud.

Biz an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni to'rtta tamoyilga muvofiq taqqosladi (1.1.1-jadval):

### 1.1.1-jadval

#### An'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili

	An'anaviyda	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda
Ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlikni tashkil etish	O'qitish og'zaki usullar va rasmlar yordamida tayyor bilimlarni bevosita uzatishni o'z ichiga oladi	O'qitish amaliy xarakterda bo'lib, ijodiy o'quv vazifalarni yechish jarayonida mustaqil «kashf»lar tomon yetaklaydi
	O'rganish juda zerikarli va mashaqqatlari bo'lib, talabaning qobiliyatidan tashqarida bo'ladi	Bilimlarni egallash shaxsiy rivojlanishda muvaffaqiyat hissi va o'z-o'zini kashf qilishda quvonchni yaratadi
	O'qituvchi o'rganishga va ta'sirga qarshilikni yengishga majbur qiladi	O'qituvchi - talabaning pozitsiyasini hurmat qiladigan va unga xato qilish va o'z fikrini bildirish huquqini beradigan xodim va yordamchidir
	O'qituvchi "fan o'qituvchisi" bo'lib, u tayyorlangan mavzu bilan keladi va o'quvchilarning talab va xohishlaridan qat'i nazar, materialning o'zlashtirilishini ta'minlashi kerak	O'qituvchi o'quvchilarning rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydi, ko'zlangan maqsadga olib keladigan ijodiy vaziyatlarni yaratadi
	Talabalar ishini faqat o'qituvchilar tomonidan baholash,	Barcha talabalar o'z-o'zini baholashda ishtirok etib, "BAHOLANISH" stressidan

	bu yerda faqat oz sonli talabalar baholanadi	ochish orqali ushbu ko'nikmani rivojlantiradilar
Dasturga muvofiqligi	O'qituvchi qat'iy dasturga bog'liq, ma'muriyatning qattiq nazorati ostida, fanni o'rganish uchun ajratilgan vaqtini o'zgartirishga xavf tug'dirmaydi va fanlarni o'tkazish tartibini, tashabbuskorlik va ijodkorlikni ko'rsatmaydi ("tashabbus jazolanadi")	O'qituvchi dasturga rioya qilishga majbur, lekin unga qattiq bog'lanmagan. U o'quv vaziyati va talabalarning ehtiyojlariiga qarab o'qish vaqtini boshqarish huquqiga ega, shuning uchun dasturga o'zgartirishlar kiritish mumkin, darslarni rivojlantirishga ijodiy yondashuv rivojlanadi
O'quv jarayonini tashkil etish	Rasmiy ish sharoitida darsning asosiy maqsadi materialni takrorlash uchun vaqt topish bo'lsa, o'quvchi sekinlashadi, tashabbus ko'rsatmaydi, o'quvchilarning faoliigi bostiriladi	Ijodiy munosabat bilan o'qituvchi fikrlashni talab qiladigan vazifalarni qo'yadi, o'quvchilarning umumiy va aqliy rivojlanishiga erishadi. O'quvchi o'ychan, mehnatsevar va faol bo'ladi
	Bolalarning "kuchli" va "zaif"ga bo'linishi mavjud bo'lib, buning natijasida yomon o'quvchilar o'rganishni "chetdan oshib ketishadi"	Barcha talabalarni qobiliyatli deb tan olish, lekin shu bilan birga, ular uchun vazifalar va ishlarni tanlashda individual va differentsial yondashuv amalga oshiriladi

	talabalarga salbiy munosabat	
	Frontal va individual ta'limning afzalliklari, ta'limda o'quvchilar o'rtasidagi muloqotning cheklowlari	Kichik ish guruhlarini tashkil etish, mehnatni jamoaviy muhokama qilish, talabalarni jamoaviy intellektual va amaliy ijodga jalb qilish
	An'anaviy og'zaki va vizual takrorlash usullarining ustunligi, ijodiy izlanishlar va yangi o'qitish usullarining etishmasligi	Innovatsion o'qitish usullarini izlashda amaliy, samarali, o'yin, proyektiv va modellashtirish vositalaridan keng foydalanish
Faoliyatni boshqarish va baholash	Talabalarga faoliyatni tahlil qilish ta'qiqlanadi, o'qituvchi barcha diagnostic funksiyalarini o'z zimmasiga qoldiradi	O'qituvchi bilan birgalikda talabalar ish natijalarini o'rganish va baholash imkoniyatiga ega
	Talabalar ishi va uning natijasini tahlil qilish, sabab-oqibatlar izohlashga o'rgatilmaydi.	Talabalar doimiy ravishda darslarni tahlil qilishda ishtiroy etadilar, ular o'z ishlarini va ta'limdoshlarining ishini baholashni o'rganadilar
	O'quv jarayonini boshqarish avtoritar pozitsiyalardan amalga oshiriladi	Hamkorlik va demokratik hamkorlik muhiti yaratilmoqda

Ushbu qiyosiy tahlil ShYY afzallikkлага egaligini ko'rsatib turibdi.

V.V.Serikov konsepsiyasiga ko'ra, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotning asosiy tamoyillari majmui sifatida tushuniladi va ta'limda o'quvchilarning

shaxsiy fazilatlarini, shaxsiy erkinligini va individualligini shakllantirishga qaratilgan ta'limg dasturini yaratadi [95;19-20-b.]

I.S.Yakimanskaya o'z ilmiy izlanishlarida ta'limg falsafasini yaqqol aks ettiruvchi tamoyillarni quyidagicha ifodalagan:

1. Har bir bola tug'ilganidanoq noyobdir.
2. Ta'limg oluvchi mashg'ulot natijasida muayan shaxsga aylanmaydi, u apriori shaxsdir.
3. Ta'limg muassasasi bolaning qobiliyatini rivojlantirish vazifasini bajarishi uchun o'qituvchi shaxsini rivojlantiradigan sharoit yaratishi kerak.
4. Ta'limg muassasasi va o'qituvchi har bir o'quvchiga individual yondashishni izlashi kerak [149; 13-14-b.]

Biz yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlil qilib, ta'limg tizimining asosiy xususiyatlaridan, shaxsning kasbiy faoliyat asosini tashkil etuvchi shaxsiy munosabatlaridan kelib chiqib, ta'limg jarayonining tamoyillarini belgilab oldik:

individual ehtiyoj va qobiliyatlarni muvofiqlashtirishga ostuvor ahamiyat berish;

professional nuqtai nazarning aniqligi va ravshanligi;

mobil moslashuvchanlik;

ta'limg texnologiyalari va malaka oshirish qonuniyatlarining aloqadorligi;

individual va jamoaviy faoliyatning muvozanati;

talabaning shaxsiy tajribasi o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi belgilash va rivojlanish ehtiyojariga maksimal darajada javob berishi.

Shuni ta'kidlashni istardikki, kasbiy rivojlanish jarayonining tezligi talabalarning ta'limg faoliyati va kelajakdag'i kasbiy amaliyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik xususiyatlariga bog'liq. Ushbu muvofiqlik BOTO' shaxsidagi tarkibiy qismlarining samarali o'zgarishi hamda progressiv rivojlanishiga olib keladi. O'zini kompetentli mutaxassis sifatida yaratish vazifasini zimmasiga olgan talaba o'z kasbiy rivojlanishi uchun mas'uliyatni his eta boshlaydi.

Bo'lajak mutaxassis qanday rivojlanishi o'zining qaroriga muvofiq o'quv jarayoni tuzilmasini qurish bilan bog'liqdir. Shuning uchun biz shaxsga yo'naltirilgan ta'limg markaziy jarayoni o'z o'zini bilish va faol ichki holat ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Har bir

shaxs o'z ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, qadriyatlari va ziddiyatlari asosida individual ishlab chiqilgan usullardan foydalangan holda o'z faoliyat xaritasini tuzadi va unga muvofiq o'zini mustaqil ravishda mutaxassis sifatida yaratadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida bo'lajak mutaxassis o'z ta'limini uning ehtiyojlariga mos keladimi yoki yo'qmi, deb baholay boshlaydi. Talabaning ichki baholashi o'z nuqtai nazari bilan hayot kelishuvi sifatida namoyon bo'ladi. Talaba o'z-o'zini tarbiyalashi, o'zini o'zi boshqarishi va ijtimoiy-iqtisodiy o'zini-o'zi ta'minlashi uning o'z taqdirini belgilash mas'uliyatini o'z zimmasiga olganligini hamda hayotiy javobgarlik oshganligini bildiradi. Mas'uliyatni sezgan mutaxassis kelajak oldida ham javobgar ekanligini anglay boshlaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nazariyasini qo'llash jarayonini o'rganar ekan, A.A.Irincheev shaxsiy - irodaviy fazilatlarni shakllantirish zarur psixologik-pedagogik omil, kasbiy takomillashtirish - kasbiy ta'limda muvaffaqiyat qozonish garovidir, degan xulosaga keldi. [43; 23 - b].

TVCHDPI tomonidan 2021 yilda ishlab chiqilgan "Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari"da kasbiy kompetensiyalar quydagicha belgilab berilgan:

- ta'lim mazmunini belgilovchi tamoyillar va mezonlarga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish;
- yaxlit pedagogik jarayonining umumiyligini qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniylarning uyg'unligiga erishish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish;
- bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;
- ta'lim-tarbiyaning hilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv

asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining Kompetentlik standarti doirasida kompetensiyalarni rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganib chiqdik va ularni quydagicha ajratdik [108; 189-b.] (1.1.2-jadval):

### 1.1.2-jadval

#### Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi Kompetentlik standarti ramkasi

Sohalar							
Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish						Kasbiy rivojlanish va hamkorlik	
<b>Amaliy pedagogik faoliyati bo'yicha kompetensiyalar sohasi</b>							
O'quv jarayonini rejalashtirish	Prog ressi v o'qit ish jara yoni ni ta'm inlas h	Qayta r aloqa	Tarbiya viy faoliyat da boshqar uvchanli k	Xafvsiz ta'lim muhiti yaratish	O'z ustida yaratish	Hamkor lik ishlash va kasbiy rivojlanish h	
Muqobil dasturlar tuzadi	O'qu vchi imk oniy atini to'g' ri bah olay di	Xalqaro baxola sh standa rtlarin i qollay di	KMYoO' xususiya tlarini biladi	O'zaro hurmat	Tizimli malakala rini sinab boradi	Otaravishda onalarni jalb kiladi	
<b>Amaliy pedagogik faoliyati bo'yicha kompetensiyalar Standarti</b>							

							uyus htira di		hamkorl ik
O'quv rejasini o'quvchila r ehtiyoji va qiziqishlar iga muvofiqla shtiradi	Dars mav zusi ga mos ko'r gaz mali va tarq atm a mat erial lard an foyd alan adi	Ta'lif natijal arini diagn ostika qilish uchun turli usulla r va vosital ardan foydal anadi	tarbiya ishlarini ng zamona viy, shu jumlada n interfaol shakllari va usullari ni amalga oshiradi	Har bir o'quvchi ng zamona viy, shu jumlada n hayotida ishtirok etish uchun teng imkoniy at yaratadi	Doimiy ravishda fanga oid adabiyotl h va ta'lif tanishadi va yangi bilimlarn i amaliyat da qo'llaydi	Ota- onalarni maktab va ta'lifni birgalik da boshqar ishga jalb qiladi.			
Dars natijasini kafolatlay di	Opti mal usull arni tanl aydi	Nazor at Testla rini ishlab chiqad i	Tarbiya viy maqsad ni aniqlash tiradi	Har bir o'quvchi qobiliya tiga mos vazifa belgilay di	Yangi metodika larni o'rganadi	Metod kengash i			
Darsdan tashqari faoliyat olib boradi	Turl i tadb irlar olib bora di	Vazifa lar to'g'ri taqsi mlanis hini tahlil qiladi	O'quvchi ning bo'sh vaqtini unumdo rligini ta'minla ydi	Yo'l xavfsizli gi qoidasi	Maktabd an tashqari ta'lif muassas alari Xaritasin i tuzadi	MTTM bilan hamkorl ik			
Kasbga yo'naltira di	uchr ashu vla	Baenn oma tuzadi	mehnats evarlik	Qadr- qimmat	Kasbnom a tuzadi	Tashkil otlar bilan			

Professional qobiliyat

Professional bilimlar

Ijtimoiy sifatlar

Qadriyatlar

akademik  
texnologik  
didaktik  
tashkilotchilik  
refleksiv  
prognostik  
kommunikativ  
pedagogik  
psixologik  
fanga oid  
metodologik  
umummadaniy  
adolat  
sabr-toqat  
hamdardlik

hazil-tuyg'usi  
o'ziga g'amho'rlik  
insonparvarlik  
milliy g'oja  
madaniyat  
pedagogik nazokat  
ma'naviyat  
tarixiy meros

ShYYga asoslangan ta'lif – ta'lif maqsadlari va mazmunini o'glashtirish va nazorat qilish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi hamda bir yoki bir nechta kompetensiyani yoki biror murakkab kompetensyaning bir qismini shakllantirilishni ta'minlaydi.

Bizning firimizcha, ShYYga asoslangan KK tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

ta'lif maqsadlarining obyektiv mezonlari va ko'rsatkichlari, ularga erishishning perseptiv, progressiv, refleksiv bosqichlari; kompetentlik qismini shakllantirishini ta'minlovchi ta'lif mazmuni;

ta'limning maqsad va mazmuniga mos keladigan shaxsga yo'naltirilgan uslublarni tanlash orqali ta'lim mazmunini ishlab chiqishda uslubiy tayyorgarlik;

ta'limni o'zlashtirish vositalari, metodlari va nazorat usullari.

ShYY ta'lim tizimining moslashuvchanligi va variativligi, ayniqsa, hozirgi davrda dolzarb bo'lmoqda, chunki globalashuv sharoitida ishchi o'rirlarning doimiy sifatli va miqdoriy o'zgarishlari kuzatilib turiladi. KKni rivojlantirish tizimining mohiyati - talabalarning birin-ketin kompetensiyalarni o'zlashtirishidan iboratdir. Bu holatda ta'lim oluvchi unga taqdim etilgan dastur bilan mustaqil ravishda ishlashi mumkin. Bo'lajak mutaxassis aniq maqsadni, axborot-texnologik bazani va ta'lim maqsadiga erishish qadam va vositalarining tavsifini belgilaydi.

ShYY doirasida ta'lim imkoniyatlarini amaliyatga tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish tufayli bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini muvaffaqiyatlari rivojlantirish va zamonaviy jamiyat oldiga qo'ygan maqsadlarga muvofiq zamonaviy raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun optimal shart-sharoit yaratiladi.

### **§ 1.2. Kasbiy kompetentlik tushunchasining ilmiy-pedagogik asoslari**

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish"<sup>2</sup> vazifasi belgilandi. Ushbu vazifani bajarish uchun kompetentli pedagogning shakllanish va rivojlanish jarayoniga alohida e'tibor qaratish muhimligi kelib chiqadi.

2017-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida o'qituvchining vazifasi mustaqil ravishda mas'uliyatlari qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan va o'zlarini bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshirishga tayyor

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947 son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2017 y., 6-son, 70-modda.

zamonaviy, bilimli, axloqiy, tashabbuskor shaxslarni tayyorlashdan iborat edi.

Bugungi kunda tegishli kompetensiyalarning rivojlanishini ta'minday oladigan, birlamchi ko'nikma - mustaqil bilim olish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan, kelajakda mamlakatning innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shadigan o'quvchilarni tarbiyalaydigan zamonaviy o'qituvchi; va uni tayyorlaydigan ta'limning mutlaqo boshqa turi - kasbiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchi ishining umumiashtirilgan tavsifi uchun bugungi kungacha "kasbiy mahorat", "mahorat", "malaka", "kasbiy qobiliyat" kabi so'zlardan foydalanilgan. Kasbiy kompetentlik tushunchasini kelajakdagi kasbiy talablar asosida bo'lajak o'qituvchining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy sifatlarining uyg'unligini ifodalash uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. OTMda rivojlantirilgan kasbiy kompetenligi asosida mutaxassis samarali uzuksiz amaliy pedagogik faoliyatini qo'rquvsiz boshdaydi. Demak, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi oliy kasbiy tafsit olish davrida shakllanishi va kasbiy kamolotiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Bunda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentlik tarkibini aniqlab olish alohida ahamiyatga ega, chunki buyurtmachi tomonidan hozirgi innovatsion o'zgarishlar bilan ajralib turgan so'nggi o'n yillikda ta'lim maydoni arxitekturasining, uning barcha subyektlari munosabatlari tizimining murakkablashuvi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi oldiga prinsipial jihatdan yangi vazifalarini qo'yadi.

Pedagogik faoliyatning professional standart modeli BBTO'ga strategik maqsadlarga muvaffaqiyatlari erishish va ta'lim tashkilotining asosiy vazifalarini hal qilish imkonini beradigan kompetensiyalar to'plamini o'z ichiga oladi, kompetensiya esa kasbiy faoliyatni tashkil etishda bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy fazilatlarning tizimli ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Kasbiy kompetentlik deganda umumiyligi, asosiy va maxsus kompetensiyalar majmui tushuniladi. Asosiy kasbiy kompetensiyalar fuqarolik-demokratik jamiyatda shaxsiy xatti-harakatlarning ijtimoiy va huquqiy normalaridan foydalanish asosida kasbiy muammolarni

hal qilishning axborot, kommunikativ va kreativ qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Maxsus, umumiylar va asosiy kompetensiyalarni fan sohasida qo'llashga kasbiy faoliyatning o'ziga xos yo'naliishi sifatida qarash mumkin.

Kasbiy kompetentlik masalasi alohida ahamiyatga ega, chunki ta'lim tizimi hozirgi vaqtida sezilarli innovatsion o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Hozirgi sharoitda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun u har qanday o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, tez va samarali moslasha olishi, o'z bilim va ko'nikmalarini tadrijiy va muntazam ravishda oshirib borishi, kasbiy mahoratini oshirishi, o'zini takomillashtirishi, noaniqliklarga toqat qilishi, xavf-xatarga tayyor bo'lishi, ya'ni, kompetentli bo'lishi kerak. Kasbiy kompetentlik o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, ijodiy individuallikga tayanadi.

Oliy kasbiy ta'limining zamonaviy tizimi erkin fikrlash, uzoqni ko'ra bilih, o'z-o'ziga ishonish va bilimini oshirish, ishga muvaffaqiyatli kirishish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, o'z mehnati natijalarini bashorat qilish, har tomonlama yetuk mutaxassis tayyorlash bilan bog'liq. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentlik tavsifini o'rganish jarayonida motivatsion, hissiy-irodaviy va refleksiv munosabatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tavsifnomada quyidagi vazifalarni bajaradi, deb hisoblaymiz:

- kasbiy kompetensiya mezonlarini mukammal bilih;
- BBTO' kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash;
- aniqlashtirilgan kompetensiyalar doirasida ilmiy asoslangan harakatlarni bajarish;
- professional refleksiya asoslangan korrektiv harakatlarni belgilash.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalashi, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish vazifasi eng olijanob, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Pedagogik-psixologik bilimlar tizimini to'liq o'zlashtirgan bo'lajak o'qituvchi har bir boshlang'ich sinf o'quvchisining o'ziga xos fe'l-atvori, xulq-atvori xususiyatlari borligini biladiki, u ularni

bemalol hisobga oladi va o'z kasbiy faoliyatida foydalana oladi. Bunda o'qituvchi odamlar o'rtaqidagi ijtimoiy munosabatlarning moraldeabilitigiga mos keladigan maxsus usullardan foydalanadi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarni bilishlari lozim.

Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish va rivojlanish jarayoni qanday kechadi kabi savollarning tug'ilishi tabiiy. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini zamonaviy nuqtayi nazardan dasturlovchiga o'xshatish mumkin. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ijtimoiy buyurtma ijrochisi sifatidagi faoliyati nafaqat davlat tomonidan tasdiqlangan standart talablarni joriy etish va ularni amalga oshirish faoliyatiga tenglashtirilibgina qolmay, balki o'sib kelayotgan avlodni jamiyat ehtiyojlariga moslashtiruvchi shaxs sifatida ham tavsiflanadi. Yuqori texnologiyalar rivojlanayotgan, ijodiy rang baranglik ortib borayotgan davrda kompetensiyalarga ega kichik maktab yoshidagi o'quvchini tayyorlash maqsadini faqat kompetentli o'qituvchi amalga oshira oladi.

Har qanday mutaxassis ham "kompetenlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya" dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. Aslida, ilkala atama o'xshashdir. Birinchisi, bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarga nisbatan qo'yildigan talab sifatida mavjudligini anglatsa, ikkinchisi - bu kompetensiyalarni ish jarayonida ishlatalish qobiliyatini anglatadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, rus metodik adabiyotlarida kompetensiya va kompetentlik atamalarining farqlanishi tarjima yoki rus tili so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari natijasida paydo bo'limgan. Ingliz tilida ham turli xil suffikslarga ega bo'lgan ikkita atama mavjud: "competence" va "competency" hamda shunga menand ushbu atamalarning ma'nolari to'g'risida turli xil qarashlar ko'zga tashlanadi. Nemis tilida "Kompetenz" atamasigina mavjud, shuning uchun kompetensiya va kompetentlik atamalari o'zaro farqlanmaydi. Xorijiy metodik adabiyotlarda ushbu atamalarning o'ziga xosligi yoki farqlanishi to'g'risida yakdil fikr mavjud emas: ba'zi xorijiy tadqiqotchilar ushbu tushunchalarni o'zaro qaramaganishi qo'yishsa, boshqalari ularni bir-birini to'ldiruvchi deb hisoblashadi. Natijada, ta'riflar bo'yicha aniq biror xulosaga kelish ancha bahsli[82; 6-b.].

hal qilishning axborot, kommunikativ va kreativ qobiliyatlarida namoyon bo'ldi.

Maxsus, umumiy va asosiy kompetensiyalarni fan sohasida qo'llashga kasbiy faoliyatning o'ziga xos yo'nalishi sifatida qarash mumkin.

Kasbiy kompetentlik masalasi alohida ahamiyatga ega, chunki ta'lrim tizimi hozirgi vaqtida sezilarli innovatsion o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Hozirgi sharoitda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi muvaffaqiyatlari faoliyat olib borishi uchun u har qanday o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, tez va samarali moslasha olishi, o'z bilim va ko'nikmalarini tadrijiy va muntazam ravishda oshirib borishi, kasbiy mahoratini oshirishi, o'zini takomillashtirishi, noaniqliklarga toqat qilishi, xavf-xatarga tayyor bo'lishi, ya'ni, kompetentli bo'lishi kerak. Kasbiy kompetentlik o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, ijodiy individuallikga tayanadi.

Oliy kasbiy ta'limining zamonaviy tizimi erkin fikrlash, uzoqni ko'ra bilish, o'z-o'ziga ishonish va bilimini oshirish, ishga muvaffaqiyatlari kirishish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, o'z mehnati natijalarini bashorat qilish, har tomonlama yetuk mutaxassis tayyorlash bilan bog'liq. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentlik tavsifini o'rganish jarayonida motivatsion, hissiy-irodaviy va refleksiv munosabatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tavsifnomada quyidagi vazifalarni bajaradi, deb hisoblaymiz:

- kasbiy kompetensiya mezonlarini mukammal bilish;
- BBTO' kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash;
- aniqlashtirilgan kompetensiyalar doirasida ilmiy asoslangan harakatlarni bajarish;
- professional refleksiyyaga asoslangan korrektiv harakatlarni belgilash.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalashi, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish vazifasi eng olijanob, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Pedagogik-psixologik bilimlar tizimini to'liq o'zlashtirgan bo'lajak o'qituvchi har bir boshlang'ich sinf o'quvchisining o'ziga xos fe'l-atvori, xulq-atvori xususiyatlari borligini biladiki, u ularni

bemalol hisobga oladi va o'z kasbiy faoliyatida foydalana oladi. Bunda o'qituvchi odamlar o'ttasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalanadi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'ravotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarni bilishlari lozim.

Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish va rivojlanish jarayoni qanday kechadi kabi savollarning tug'ilishi tabiiy. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini zamonaviy nuqtayi nazardan dasturlovchiga o'xshatish mumkin. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ijtimoiy buyurtma ijrochisi sifatidagi faoliyati nafaqat davlat tomonidan tasdiqlangan standart talablarni joriy etish va ularni amalga oshirish faoliyatiga tenglashtirilibgina qolmay, balki o'sib kelayotgan avlodni jamiyat ehtiyojariga moslashtiruvchi shaxs sifatida ham tavsiflanadi. Yuqori texnologiyalar rivojlanayotgan, ijodiy rang baranglik ortib borayotgan davrda kompetensiyalarga ega kichik maktab yoshidagi o'quvchini tayyorlash maqsadini faqat kompetentli o'qituvchi amalga oshira oladi.

Har qanday mutaxassis ham "kompetenlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya" dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir. Birinchisi, bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarga nisbatan qo'yiladigan talab sifatida mayjudligini anglatsa, ikkinchisi - bu kompetensiyalarni ish jarayonida ishlatish qobiliyatini anglatadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, rus metodik adabiyotlarida kompetensiya va kompetentlik atamalarining farqlanishi tarjima yoki rus tili so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari natijasida paydo bo'lgan. Ingliz tilida ham turli xil suffikslargacha ega bo'lgan ikkita atama mavjud: "competence" va "competency" hamda shunga monand ushbu atamalarning ma'nolari to'g'risida turli xil qarashlar bo'lg'ga tashilanadi. Nemis tilida "Kompetenz" atamasigina mavjud, shuning uchun kompetensiya va kompetentlik atamalari o'zaro farqlanmaydi. Xorijiy metodik adabiyotlarda ushbu atamalarning o'ziga xosligi yoki farqlanishi to'g'risida yakdil fikr mavjud emas: ba'zi xorijiy tadqiqotchilar ushbu tushunchalarni o'zaro qaramaqashi qo'yishsa, boshqalari ularni bir-birini to'ldiruvchi deb hisoblashadi. Natijada, ta'riflar bo'yicha aniq biror xulosaga kelish ancha bahsli[82; 6-b.].

Shu nuqtai nazardan "kompetensiya" va "kompetenlik" tushunchasining mazmun mohiyatini aniqlash muhimdir. Ushbu tushunchalarning shakllanish tarixi bizga kompetensiyaviy yondashuvining metodologik mohiyatini ochishga yordam beradi.

Merriam-Vebster lug'atiga ko'ra, "kompetensiya" atamasiga birinchi murojaatlар 1605 yilga to'g'ri keladi[162]. Shu bilan birga, I.A.Zimnyaya kompetensiya tushunchasi "atere"(yunoncha) - shaxsning o'ziga xos xususiyatiga aylangan shunday darajada rivojlangan va takomillashgan kuch" deb nomlanuvchi inson holatining imkoniyatlarini o'rgangan Aristotel nomi bilan bog'liq deb hisoblaydi [138; 155 - b.]. Kompetensiya tushunchasi XX asr boshlarida kundalik hayotda va adabiyotda keng qo'llanilgan. Masalan, 1907 yildagi "Rus tilida qo'llaniladigan xorijiy so'zlarning to'liq lug'ati"[28; 231-b.] kompetensiyani "ma'lum bir sohadagi muammolarni hal qilish va hodisalarning ma'lum doirasi haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun zarur bo'lgan yetarli darajada xabardorlik" deb ta'riflaydi. 1933-yilda chop etilgan "Chet el so'zları lug'ati"da "kompetensiya - muassasa yoki shaxsning vakolatlari" sifatida berilgan[163; 235-b.].

2009 - yilda chop etilgan "Rus tili lug'ati"da kompetentlikga voqeа- hodisalar, masalalar yechimi to'g'risida xabardor bo'lish, muayyan nufuzga ega bo'lishni o'zida ifoda etish sifatida ta'rif berilgan [115; 34 - b.].

2014 yilda chop etilgan "Pedagogik atamalar lug'ati"da kompetensiya - shaxsda ma'lum bir masala, muammo, hodisa bilan bog'liq bilim, tajriba, malaka va ularni hal qilish qobiliyati tushuniladi [154; 15 - b.].

Ammo ta'lrim muhitida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari faqat XX asrning 60-70-yillarda keng tarqaldi. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, kompetensiya muammosiga bo'lgan qiziqishlarning yuzaga kelishi "... iqtisodiyot, ta'lrim va madaniyatdagi tanglik vaziyatlariga to'g'ri keladi" [49; 49 - b.].

Ba'zi tadqiqotchilar buni 1957 yilda SSSR tomonidan Yerning sun'iy yo'ldoshni uchirish bilan bog'liq deb hisoblashadi. Ushbu hodisa Amerika ta'lrim tizimining keskin tanqid qilinishiga va isloҳ etilishiga olib keladi[165]. 1959 yilda R. Uayt o'zining «Motivation reconsidered: The concept of competence»[119; 329 - b.]

(Motivatsiya qayta ko'rib chiqilishi: kompetensiya tushunchasi) asarida birinchi marta kompetensiya tushunchasini shaxsiy mazmun bilan to'ldiradi. 1965 yilda N.Xomskiy lingvistikaga kompetensiya tushunchasini kiritadi. Uning «Sintaksis nazariyasi aspektlari»[127] asarida bayon etilgan g'oyalari asosida o'tgan asrning 70-yillarda Amerikada kompetensiya yo'naltirilgan ta'limga o'tish amalga oshiriladi.

Shunday qilib, 1960 - 1970 yillarda ta'lim tizimiga "kompetensiya" va "kompetentlik" kategoriyalari kiritiladi, bu tushunchalarning mohiyatini anglash va chegaralash uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

1984 yilda Jon Ravenna "Zamonaviy jamiyatdagi kompetensiya" asari paydo bo'ladi [85]. Muallif kompetensiyaning batafsil ta'rifini beribgina qolmay, balki kompetensiyaning mohiyati haqidagi o'z fikrlarini ham bayon qiladi, kompetensiya turlarini ajratadi va ularni tasniflaydi. Kompetensiyani J. Raven ijtimoiy shamiyatga ega sohadagi hayotiy muvaffaqiyat sifatida talqin qiladi[83; 281 - b.].

Yana shuni ta'kidlashimiz kerakki, ta'lim sohasidagi nufuzli salqaro ekspertlar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ikki xil kompetensiyalarni uyg'un joriy etish taklifi kiritilgan. Bular: "Hard skills" - (ingliz. "qattiq" malaka) kasbiy kompetensiyalari hamda "Soft skills" - (ingliz. "yumshoq", "moslashuvchan" malaka) universal (omumiyl) kompetensiyalar [13; 6-b.].

"Hard skills"[160] - "qattiq" malakaga ega bo'lish uchun muayyan kasb bo'yicha aniq bilim zarur bo'ladi va bu ko'nikmalarning mavjudligi imtihon o'tkazish orqali aniqlanadi.

"Soft skills"[160] - "yumshoq" kompetensiyalar (ijodkorlik, muloqot qobiliyatları, jamoada ishlash, qat'iyatlilik, tanqidiy fikrlash va boshqalar) ko'pincha shaxsiy sifatlar, fe'llar, qobiliyatlar sifatida talqin qilinadi, chunki ular bevosita shaxsning xarakteri, hayotiy tajribasi, mavqeи bilan bog'liqdir.

Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha hududiy yondashuvlar ham mayjud:

An'anaviy Amerika yondashuvi kompetensiyaning xulq-atvor xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, asosiy masala qaysi shaxsiy xususiyatlar muvaffaqiyatli harakatlarga (yuqori

ko'rsatkichlarga) olib kelishini aniqlashdir. Bunday holda, kompetensiya "samarali va muvaffaqiyatli (yuqori) harakatda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan va harakat kontekstiga, tashkiliy va atrof-muhit omillariga, kasbiy faoliyat xususiyatlariiga bog'liq bo'lgan asosiy xulq-atvor jihatni yoki xususiyati" deb tushuniladi. (Derous, 2000) [16; 18-b].

Yevropa ta'limgiz tizimida asosiy e'tibor shaxsiy xususiyatlarga emas, balki faoliyat xususiyatlariiga qaratiladi. Tadqiqotchilarni qiziqtiradigan asosiy muammo - belgilangan talablarga javob beradigan, erishilgan natijani hisobga olish uchun bajarilishi kerak bo'lgan faoliyatning asosiy elementlari nimadan iboratligini bilish. Bunday holda, standartlashtirilgan testlar yoki malaka talablariga javob beradigan standartlarni aniqlash muhimdir. "Kompetentlikning standartlardan oshib ketishi muvaffaqiyatni ta'minlaydi" (Parry, 1996).

Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan quyidagi beshta kompetensiyalar umumiy deb keltiradi:

- siyosiy va ijtimoiy;
- madaniyataro;
- yozma va og'zaki muloqot;
- axborot;
- o'zini rivojlantirish [125; 38-b].

Ordon Urshulya o'z tadqiqotida Yevropa integratsiya jarayonlari sharoitida zarur bo'lgan boshlang'ich ta'limgiz o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari tizimi uch guruhnini o'z ichiga oladi, degan xulosaga keladi:

birlamchi kompetensiyalar - (madaniy, axloqiy va h.k. kompetensiyalar);

asosiy kompetensiyalar (texnik, psixo-pedagogik, pragmatik, axborot-kompyuter, ijodiy, kommunikativ va kooperativ kompetensiyalar);

maxsus kompetensiyalar - boshlang'ich maktab o'qituvchilarini uchun qo'shimcha (badiiy, nutq, ritorik, ifodalgi, musiqiy, texnik, improvizatsiya, sport kompetensiyalari) [167].

Kompetensiya ta'limning berilgan me'yori sifatida qaraladi, kompetentlik - bu muayyan sohada samarali va unumli faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning sifati [166].

A.A.Irincheev kompetensiyaning kasbiy xulq-atvorning muayyan me'yorlariga, ya'ni mehnat faoliyatini bajariish me'yorlari yig'indisiga rioya qilish qobiliyati deb hisoblaydi va kompetentlik faoliyatning murakkab natijasini, shu jumladan malaka va shaxsiy xususiyatlarni aks ettiradi, deb hisoblaydi [159].

Kompetensiya - ma'lum bir fan sohasida samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligi, har qanday sohada har tomonlama bilimga ega bo'lgan va shuning uchun fikri salmoqli, obro'li bo'lgan shaxs malakaviy xarakteristikasidir. Ma'lum bir kompetensiya egalik shaxsga o'z faoliyati bo'yicha hukm chiqarish va qaror qabul qilish imkonini beradi [170].

"Kompetentlik" tushunchasi ta'limgiz sohasiga kirib kelishini tahlil qilar ekanmiz, u psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelganligini aniqladik [171].

Psixologiyada kompetentlik odatta mutaxassisning noodatiy, kutilmagan vaziyatlarda o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan muomala qilishda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishi, ziddiyatli ma'lumotlardan foydalanishi, muntazam ravishda harakat rejasini ishlab chiqishi va unga ega bo'lishi deya ta'riflanadi [172].

O'zbekistonda chet tillarni o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2012 - yildagi PQ-1875-sen qaroriga [4] muvofiq, ilk bor kompetensiaviy yondashuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib, 2013-2014 o'quv yilidan bosqichma bosqich amaliyotga joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limgiz davlat ta'limgiz standartlari" 187-sen qarorida kompetensiya tushunchasi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflanadi [7].

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta maktabning har bir bitiruvchisi tayanch va fanga doir kompetensiyalarni egallashi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi 187-senli «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limgizning davlat ta'limgiz standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorida ta'limgizning uzluksizligi, uzviyliги, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlari-

mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab qo'yilgan:

kommunikativ kompetensiya;  
axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi;  
o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi;  
ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;  
milliy va umummadaniy kompetensiya;

matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi [7].

Mazkur kompetensiyalar o'quvchilarda umumta'lim fanlari orqali shakllantiriladi. Shuningdek, har bir umumta'lim fan mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda umumiyy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Ushbu shakllantirilgan kompetensiyalarga asoslanib, bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 19.10.2021 yildagi 35-2021-sun «Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» buyrug'ida kompetensiya va kompetentlik tushunchalar quyidagicha izohlanadi:

kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

kompetentlik - shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati [9].

Yuqoridaagi rasmiy manbalardan olingan fikrlarni ushbu jadvalda birlashtirib ko'rishimiz mumkin(1.2.3-jadval):

### 1.2.3-jadval

#### Kompetensiya atamasining xronologik tahlili (O'zbekiston misolida)

Yillar	Manba	Izoh
T - 2008	Pedagogik atamalar lug'ati, 36 - bet	Kompetensiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik

T - 2012	"Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sun qarori	Kompetensiaviy yondashuvga asoslangan DTS
T - 2014	Pedagogik atamalar lug'ati	Turli masalalarni yechish saloxiyati
T - 2017	187-soni «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi VM qarori	Tayanch va fanga oid kompetensiyalar
2021	35-2021-sun «Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar»	Bkmlarni qo'llay olish qobiliyati

Ushbu jadval tahlili kompetensiya atamasining mazmuni bilimdonlikdan to BKMLarni qo'llay olish qibiliyatigacha o'rganganligini, shuningdek, kompetensiyalar O'zbekiston ta'lim muhitida tasniflanganligi va bosqichli joriy etilganligini ko'rsatmoqda.

**M. Ochilov** "kompetensiya" tushunchasini quyidagicha tariflaydi: "Kompetensiya - bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarning faoliyatdagi ko'rinishi" [80; 34 - b.]

**S.X.Abdullaevan** fikricha, kasbiy kompetentlik shartli ravishda kasbiy, shaxsiy, umuminsoniy, madaniy va maxsus turlarga ajratiladi. [11; 21 - b.]

**M. T. Mirsoliyeva** pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlash natijasi bo'lgan kompetentlik kasbiy, shaxsiy va maxsus kompetensiyalar majmuidan iborat bo'lib, o'ziga xos murakkab ko'p qirrali tashkiliy tuzilishga ega, degan fikrda. [63; 78 - b.]

**O. Musurmonova** "Kompetentlik" shaxsiy amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablar asosida

kreativlikni ish tajribasida namoyon etish mahorati deb baholaydi [73; 44 -b.]

**B.Nazarova** bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqot kompetentligini ikki yo'nalishda ko'rib chiqadi:

gorizontal - hayot davomida;

vertikalda - mutaxassisning kasbiy ta'limining chuqurligi va xilma-xilligida.

**B.Nazarova** tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqot kompetentligini tarbiyalash strukturaviy modeli quyidagi shaklga ega:

uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchining ta'lim, tarbiya, fan, dunyoqarash va amaliy faoliyatining uzluksizligi;

yuqori nazariy va uslubiy bilim;

o'qituvchi mahorati;

bo'lajak o'qituvchining metodik madaniyati sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishi;

pedagogik kadrlar tayyorlashda fanlararo aloqalarni amalgaga oshirishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish;

uzluksiz ta'limga bo'lgan talabni yaxshilashda ta'lim-tarbiya va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bog'liqligi, uzluksizligi, boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish birligi tamoyillarini o'zlashtirish;

tegishli obyektlarni bilish va o'zgartirishning samarali vositasi sifatida tahlil va sintezning birligi va o'zaro bog'liqligi;

barkamol shaxsiy rivojlanish uchun sharoit yaratish[76; 68 - b.].

Kasbiy soha oliv ta'lim maxsuliga asosiy talablarni qo'yadi, mutaxassis kompetensiyalarini belgilaydi. Ta'lim sohasida bilim, ko'nikma va malakalarni kasbiy soha uchun zarur bo'lgan aniq vakolatlarga yangilash zarurati mavjud. Shu bilan birga, "kompetentlik" tushunchasini qo'llash amaliyoti boshlanadi.

**O. A. Qo'ysinov** kompetent yondashuvning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni va didaktik imkoniyatlarini ochib berish asosida bo'lajak o'qituvchilarning bilim motivatsiyasini, ijodiy tafakkurini va kasbiy faolligini oshirish mumkin, degan fikrda. [84; 21 - b.].

**D.A.Mustafoeva** individual tajribani doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirishni o'z ichiga olgan kasbiy tajribani

toplashga olib keladigan pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, kasbiy ta'lim sifatini oshirish borasida izlanishlar olib borgan[70; 29 - b.].

**K.A.Abulxanova** - **Slavskaya** kompetentlikni mehnat subyektining kundalik faoliyat vazifalarini bajarishga kasbiy tayyorligi va qobiliyati sifatida tavsiflaydi[12; 89 - b.].

**Y.G.Tatur** fikricha, kompetentlik - bu shaxsning integral xususiyati bo'lib, uning ma'lum bir sohada muvafaqqiyatli faoliyat yuritish uchun o'z imkoniyat(bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy fazilatlar va b.)larini amalgaga oshirish istagi va qibiliyati(tayyorligi) [100; 5 - b.].

**A.V.Xutorskoy** kompetentlikga shaxsning tegishli kompetensiya(vakolat)ga ega bo'lishi, egaligi, shu jumladan unga va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabati, deya ta'rif beradi [129; 127 - b.].

O'qituvchilar kompetentligini rivojlantirish bo'yicha fundamental tadqiqotlar **L.M. Mitina** (2004) va uning shogirdlari tomonidan olib borildi. Natijada o'qituvchi shaxsining uchta ajralmas xususiyati aniqlandi: yo'naltirilganlik, kompetentlik va moslashuvchanlik. Bu xususiyatlar pedagogik faoliyatning samaradorligini, shuningdek, uning kasbiy rivojlanishini belgilaydi. L.M.Mitinaning ta'kidlashicha, kasbiy kompetentlilik modeliga kasbiy bilim, pedagogik yo'nalish, pedagogik mahorat, umumiy madaniy rivojlanish, pedagogik bilim (gnostik, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy loyihalash) kiradi [169; 46 - b.].

Amerika tadqiqotchilari **J.Raven**, **L.Stross**, **Dj.Morenolar** fikricha, kompetentlik - «shaxsning ixtisosligi bo'yicha aniq faoliyatni bajarishda zarur bo'ladigan qobiliyatlar majmui, malakalarning namoyon bo'lishi, mas'uliyat hissining mo'jassamlashuvi natijasida paydo bo'ladigan tafakkur turi»- deb tavsiflaydilar[87].

**R. Uayt** kompetentlikni "organizmning atrof-muhit bilan samarali aloqa qilish qobiliyati" deb ataydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta'kidlashlaricha, kompetentlik - shaxsning murakkab, yaxlit bir butun, ko'p omilli, ko'p qirrali sifati bo'lib, kasbiy faoliyatga oid bir qancha shaxsiy sifatlarni mujassam etgan integrativ tushuncha.

**J.Ravenna** "Zamonaviy jamiyatdagi kompetentlik" asarida muallif kompetentlikni batafsil talqin qiladi. D. Ravenna fikriga ko'ra, kompetentlik "juda ko'p tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularning aksariyati bir-biridan nisbatan mustaqildir ... ba`zi tarkibiy qismlar ko'proq bilim sohasi bilan bog'liq, boshqalari esa hissiy ... bu komponentlar samarali xulq-atvorning tarkibiy qismlari sifatida birlarini o'rnini bosishi mumkin" [86; 253 - b.]. J.Raven "kompetentlikning tarkibiy qismlari» atamasi «odamlarning o'ziga xos muhim maqsadlariga erishishga imkon beradigan xususiyatlarini va qobiliyatlarini ..." anglatadi va "kompetentlik nafaqat qobiliyatlarni, balki, ichki motivatsiyani nazarda tutadi, bu esa qobiliyat tushunchasiga kiritilmagan" [86; 280 - b.].

Quyidagi fazilatlar kompetensiyaning paydo bo'lishiga asos bo'ladi:

- 1) muayyan fan sohasida moslashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar;
- 2) shaxsiy amaliy tajriba.

Biroq bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanganligi bilan, kompetentlik ularning o'zidangina iborat emas. Kompetentlik shaxsnинг sifati bo'lib, ularni muayyan vaziyatda, amaliy faoliyatda qo'llay olishga qodirligidir. Kompetentlik muayyan faoliyatni o'zlashtirib borish jarayonida vujudga keladi. Kompetentlik - o'qituvchining noaniq vaziyatda harakat qilish qobiliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, noaniqlik qanchalik baland bo'lsa, bu qibiliyatning namoyon bo'lishi shunchalik muhim bo'ladi.

**N.V.Kuzmina** fikricha, kompetentlik "shaxsga xos xususiyati" bo'lib, o'z ichiga 5ta turni oladi:

- Maxsus va kasbiy kompetensiyasi.
- Uslubiy kompetensiya, talabalarining qobiliyati.
- Ijtimoiy-psixologik kompetensiya.
- Differentsial psixologik kompetensiya.
- Avtopsixologik kompetensiya[51; 54 - b.].

**A.K.Markova** kasbiy kompetentlikning maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual turlarini aniqlagan [62; 7 - b.].

A.K.Markova professional kompetentligining quyidagi olti darajasini belgilaydi:

Birinchi daraja - stajyor o'qituvchi: kasbiy amaliyotga kirish, o'z salohiyatini sinash.

Ikkinchi daraja - o'qituvchi: fan amaliyotida ma'lum bo'lgan usullardan foydalangan holda kasb asoslarini o'zlashtirib, ijobiy ko'rsatkichlar va samarali natijaga erishish. Birlamchi e'tibor talabaning rivojlanishiga emas, balki uning bilimiga qaratiladi.

Uchinchi daraja - ustoz: yuqori texnik ko'nikmalarga egalik; barqaror yuqori samaradorlik; optimallik; o'quvchilarining rivojlanishini hisobga olish.

To'rtinchi daraja - o'qituvchi-innovator: noyob individual usullar yoki ta'limning o'ziga xos qo'shma tizimlarini izlash va ulardan foydalanish; ijodiy yondashuv; yangi narsalarni qidirish samaradorligi; talabalarning aqliy rivojlanishiga jiddiy e'tibor berish; individuallik.

Beshinchi daraja - o'qituvchi-tadqiqotchi: boshqa o'qituvchilarining o'ziga xos g'oyalari yoki yangi usullarining shamiyatini o'rganish va baholash istagi va qobiliyati, samaradorlikni, optimallikni baholash.

Oltinchi daraja - professional o'qituvchi: psixologik o'z-o'zini rivojlantirishga doimiy intilish, oldingi ijobiy darajalarining mayjudligi; o'quvchi uchun barcha qidiruvlarni amalga oshiradigan psixolog yangisining samaradorligini o'rganuvchi tadqiqotchi; yangi narsalarni sinovchi innovator; zamonaviy ilm-fan yukiga ega bo'lgan usta [62; 7 - b.].

**M.Gonchar** [37] A.K.Markova tasnididan foydalanib, o'qituvchi kompetentligini rivojlantirish darajalarini aniqlab ko'rsatadi:

«Fan o'qituvchisi» (o'qituvchi o'quvchilarining individual fazilatlarini rivojlantirmaydi, u fanni o'zlashtirishga e'tibor beradi va buni o'z faoliyatining asosiy maqsadi deb biladi).

“Oqilonha konservator” (o'qituvchi o'quvchining individualligini rivojlantirishga qaratilgan, ammo maqsadga erishish uchun u birinchi darajali o'ziga tegishli bo'lmagan vositalardan foydalanadi).

“Tadqiqotchi” (o'qituvchi rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun ongli ravishda etarli vositalardan foydalanadi, lekin haribir barqaror muvaffaqiyatga erishmaydi).

"Professional" (o'qituvchi nafaqat rivojlanish maqsadlarini belgilaydi, balki ularni muvaffaqiyatli amalgalashadi).

"Superprofessional" (o'qituvchi pedagogikaning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi) [37; 114 - b.].

**I.A.Zimnyaya** ilmiy izlanishi natijasida kompetentlik tarkibida 10 ta kompetensiyani qayd etadi, bular sog'lioni saqlash sohasidagi kompetensiya; qadriyat kompetensiysi; integratsiya kompetensiysi; fuqarolik kompetensiysi; o'z-o'zini takomillashtirish kompetensiysi; ijtimoiy hamkorlik kompetensiysi; muloqot qilish kompetensiysi; kognitiv faoliyat kompetensiysi; faoliyat kompetensiysi; axborot texnologiyalari kompetensiysi [139; 81 - b.].

**N.E. Kostilyovaning** ilmiy ishida o'qituvchining kasbiy kompetensiysi tarkibidagi individual-gumanistik yo'naliish; pedagogik tushuncha; pedagogik mahorat; o'qituvchining ijodkorligi namoyon bo'ladi. Ular bir-biriga bog'langan va tizimni tashkil qiladi. Muallif ushbu tizimdan kelib chiqib, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini murakkab individual psixologik tuzilma sifatida belgilab bergen bo'lib, u tajriba, nazariy bilim, amaliy ko'nikma va muhim shaxsiy sifatlar yig'indisiga asoslanadi, ularning pedagogik faoliyatni amalgalashadi.

**B. M. Tleuberdiev, G. A. Risboeva, N. N. Medetbekovalar** kompetentlik ma'lum ijtimoiy va kasbiy maqomga ega bo'lgan shaxslarning bilimlari, ko'nikmalari va tajribasining hal qilinishi kerak bo'lgan muammoning haqiqiy darajasiga muvofiqligi mezoni degan xulosaga kelishadi. [102; 50 - b.].

Shunday qilib, nazariy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'limga o'qituvchilarining pedagogik kasbiy kompetensiyalari umumiy ta'limning turli yo'naliishlarini chuqur o'rganishga asoslanib, kasbiy mahorat va shaxsiy kasbiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limga samaradorligini ta'minlashda kompetentlik asosini tashkil etuvchi o'qituvchining shaxsiy fazilatlari va pedagogik malakalari katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limga o'qituvchisi o'quvchilarda har tomonlama tarbiyaviy faoliyatni shakllantirish uchun barcha psixologik-pedagogik vositalardan foydalanishi kerak.

Bunday integratsion o'quv faoliyati davomida shaxsning rivojlanishini boshqarish uchun o'qituvchi kompetentli bo'lishi kerak.

O'z vazifalarini to'g'ri bajarishi uchun pedagog kompetentli bo'lishi, rivojlanish traektoriyasini kasbiy o'sishi tomon yo'naltirishini bilishi kerak. Kompetentlik murakkab mazmunga ega bo'lib, u nafaqat bilimning mavjudligi, balki uni har tomonlama qo'llash qobiliyatini ham talab qiladi hamda baholash va nazorat qilish jarayonida aniqlanadi.

Kasbiy pedagogik kompetentlik ta'limga jarayonini rivojlantirish, ta'limga muassasasining o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish, innovatsion ta'limga faoliyatining samarali kechishiga jiddiy ta'sir etuvchi omildir.

BTO'ning shaxsining kasbiy rivojlanishi yuzasidan olb borilgan ilmiy tadqiqotlarda "kompetentlik" intellektual, motivatsion, kommunikativ, ijodiy, pertseptiv va hissiy-ixtiyoriy kompetensiyalar to'plami sifatida belgilanadi.

BBTO'ning kasbiy kompetentlik darajasi quyidagi omillarga bog'liq:

- 1) individual xususiyatlar;
- 2) ijtimoiy muhit;
- 3) madaniy me'yor;
- 4) rivojlanishning dolzarbliji.

O'qituvchi faoliyatining samaradorligi ma'lum ko'rsatkichlar (deskriptor, indikator) asosida belgilanadigan kasbiy kompetensiyaga bog'liq. Kompetensiyalar, masalan, nimani o'rganish kerakligi va o'qitish usullarini tushunish darajasi, zamonaviy ta'limga texnologiyalari va dasturlash qobiliyati, ta'limga maqsadlarini belgilash va shaxsniga rivojlantirish masalalarini hal qilish qobiliyati bilan belgilanadi.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi - bu kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etishni ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar majmuidir. ular insonparvarlik tamoyillari asosida kasbiy bilim, pedagogik mahorat va pedagogik texnikaning tizimli rivojlanishini ta'minlaydi. Bundan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining kompetentligi murakkab, ko'p

qirrali integral xususiyatlar majmuasi bo'lib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

o'qituvchining kasbiy mahoratini tashkil etuvchi maxsus kompetensiya;

o'qituvchi faoliyatini asoslovchi me'yoriy kompetensiya;

o'qituvchining obyekt bilan ishlashinin belgilovchi pedagogik-psixologik kompetensiya;

o'qituvchi didaktikasini belgilovchi muallif yondashuvi.

Turli manbalarni tahlil qilish asosida kompetensiya va kompetentlik murakkab, ko'p qismli va fanlararo tushunchalar bo'lib, yagona qiymat ta'rifiga ega bo'lmasligini ta'kidlamoqchimiz. Fikrimizcha, ular hajmi, turkumi, tarkibi va mantiqiy tuzilmasi, darajalari bo'yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsiyi sifatida qaraladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar, olib borilgan tahlillar natijasiga ko'ra, shu kunda o'qituvchidan kompetentlikning asosiy komponentlarini bilish, uni egallash va o'z faoliyatida qo'llay olishni talab etishini nazarda tutib, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchasiga quyidagicha **mualliflik yondashuvi** asosida ta'rif berdik:

**KOMPETENSIYA** – bu faoliyat doirasida aniq vazifani bajarish yuzasidan belgilab qo'yilgan standart ko'nikmalar yig'indisi.

**KASBIY KOMPETENTLIK** - kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lum kompetensiyalar doirasiasi, o'qituvchi shaxsining malakaviy xususiyatidir (1.2.4-jadval):

#### 1.2.4-jadval

##### Kompetensiya va kompetentlik qiyosiy tahlil

Muallif	Kompetensiya	Kompetentlik
G.A. Asilova [18]	muayyan sohadagi ish jarayonida shaxsiy fazilatlar va bilim, ko'nikma va malakalardan samarali foydalanish.	muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan layoqatdir.

Risqulova [09]	u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan sotsiolingvistik qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisi.	shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir.
D.E.Qarshiyeva [02]	Bu muayyan muammoni (pedagogika) hal qiladigan, to'siqlarni yengib o'tadigan va muayyan mavzu va jarayonlar ko'lami bilan bog'liq bo'lgan maqsadlarga erishadigan va unga bog'liq xususiyatlar (bilim, ko'nikma, ko'nikma) majmuasi bo'lgan yagona muvaffaqiyatli harakat, ijodiy kasbiy faoliyat uchun zarur strategiya.	shaxsning o'z faoliyat predmeti va shaxsiyatiga monand muayyan kompetensiyalarga egaligini ifodalovchi hamda o'zlashtirilgan samarali strategiyalar orqali muvaffaqiyatli faoliyatni ta'minlaydigan integral shaxsiy resurslar.
G.R.Tojiboyeva	faoliyat doirasida aniq vazifani bajarish yuzasidan belgilab qo'yilgan standart ko'nikmalar yig'indisi.	professional faoliyatda yuzaga keluvchi masalalarni samarali yechishga qaratilgan aniqlashtirilgan vakolatlar doirasi, o'qituvchi shaxsiyatining ajralmas xususiyatidir.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy boshlang'ich ta'limga mutaxassisning kasbiy kompetentligi mutanosib ravishda rivojlangan ilmiy, didaktik, boshqaruv, kommunikativ, texnologik, diagnostik, ijodiy, refleksiv kompetensiyalar bilan ta'minlanadi.

Boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining ijtimoiy sifatlarigaadolat, sabr-toqat, hamdardlik, hazilkashlik, o'ziga g'amxo'rlik kabilar kirdi.

Bizningcha, insonparvalik, milliy g'oya, madaniyat, pedagogik nazokat, ma'naviyat, tarixiy meros boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining qadriyatlar doirasini tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz boshlang'ich ta'limga o'qituvchilik ixtisosining xususiyatlarini ifodalovchi kasbnomasini ishlab chiqdik [114; 100-b.] (1.2.5-jadval):

**1.2.5-jadval**


**Boshlang'ich ta'limga o'qituvchisi kasbnomasi**

Nomi	Ma'lumot
Mutaxassislik tavsifi	Boshlang'ich ta'limga o'qituvchisi bilimdon, davlat tilini puxta o'zlashtirgan, kamida bitta chet tilini mukammal o'rgangan va uni o'qitish sertifikatiga ega, o'qitishning ilg'or usullarini biladigan, davlat kelajagi bo'lgan yoshlarning ta'limga tadbiri mas'uliyatini chuqur idrok etadigan, o'z ishiga fidoyi, bolalarga mehribon. Boshlang'ich ta'limga o'qituvchisi ta'limga oid fanlarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, shuningdek, maktabning ijtimoiy hayotida kichik mактаб yoshidagi bolalarga bevosita ta'limga va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.
Tayanch so'zlar	Ta'limga jarayoni, boshlang'ich ta'limga, ta'limga va maktabdan tashqari ishlar, ta'limga boshqarish, hujjatlashtirish, konfliktlarning oldini olish, ilmiytadqiqot va loyiha faoliyat, rivojlantirish muhiti.
Bilish sohalari	Pedagogika, rivojlanish psixologiyasi, fiziologiyasi, boshlang'ich ta'limga o'qitish metodikasi, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi, pedagogik boshqaruv tamoyillari, o'quv jarayonini metodik ta'minlash, bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etish usullari, pedagogik innovatsiyalar va integratsiya, inklyuziv ta'limga.

Faoliyat vositalari	Xattaxta, o'quv-me'yoriy xujjalalar, darslik, metodik qo'llanmalar, didaktik tarqatmalar, multimedia va interaktiv uskunalar: proektsiya ekrani, multimedia proektori, slayd proektori, plazma panel, video devor, videokamera, kompyuter, DVD pleer, audiotexnika, lazer ko'rsatgich, elektron kitob, interfaol doska, interaktiv planchet.
Mutaxassisning ijtimoiy faoliyat turлari	Boshlang'ich umumiy ta'limga dasturini o'zlashtirishga qaratilgan o'quvchilarning dars faoliyatini tashkil etish; boshlang'ich umumiy ta'limga dasturini amalga oshirish arayonida o'quvchilarning ta'limga tashqari faoliyatini tashkil etish;
Sifatlar	boshlang'ich ta'limga o'quvchilarining ota-onalari (qonuniy vakillari) bilan ta'limga va tarbiya masalalarini hal etishda o'zaro hamkorlikni ta'minlash; boshlang'ich ta'limga dasturi mazmunini o'zlashtirishni pedagogik nazorat va baholash;
Kompetensiya jar	boshlang'ich ta'limga dasturini amalga oshirishning dasturiy ta'minoti va uslubini ishlab chiqish. bolalarga muhabbat va ularga g'amxo'rlik qilish istagi yuqori darajadagi shaxsiy javobgarlik o'z-o'zini nazorat qilish va muvozanat bag'rikenglik, odamlarga nisbatan tanqidsiz munosabat o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini rivojlantirish istagi topqirlik va ko'p qirralilik xushmuomalalik maqsadlilik o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik san'atkorlik bolalar rivojlanishidagi tendentsiyalarni kuzatish va sezish qobiliyati faol hayotiy pozitsiya Predmetli, didaktik, kommunikativ, menejerlik, diagnostik, texnologik, kreativ, refleksiv

Bizningcha, boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining kasbiy kompetentligini bir biri bilan bog'lanib, tutashib ketgan kasbiy

kompetensiyalar, kasbiy sifatlar hamda kasbiy qadriyatlar bloklari tashkil etadi (rasm 1.2.6).



### 1.2.6- rasm. Kasbiy kompetentlik bloklari

Kompetentli pedagog aniq, ijobiy, sifatli natijalarga erishish uchun o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga intiladi, ish standartiga mos keladigan ta'limga qadriyatlarni ishlab chiqadi va jarayonda qo'llaydi. Kasbiy kompetentlik bo'lajak o'qituvchining eng yuqori qadriyatiga aylanganligi uning ta'limga jarayoniga qo'shgan shaxsiy hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. Shuning uchun BT o'qituvchisining kasbiy qobiliyatları, kasbiy qadriyatları va kasbiy fazilatlarini diagnostika qilish uchun ilmiy asoslarni ishlab chiqish kerak. Tashxis natijalari asosida boshlang'ich ta'limga o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni va texnologiyalari takomillashtirishi lozim.

Kompetensiyanı rivojlantirish bo'lajak mutaxassisning kasbiy bilimlarini doimiy ravishda boyitish, yangi ma'lumotlarni o'rganish, muhim ijtimoiy ehtiyojlardan xabardor bo'lismi, yangi ma'lumotlarni izlash, ular bilan ishlab chiqish va o'z faoliyatida qo'llash qobiliyatini bilan bog'liq.

Kundalik kasbiy rivojlanish nuqtai nazaridan o'z bilimlarini doimiy ravishda aks ettiruvchi qayta ko'rib chiqish BBT o'qituvchisiga o'z kasbiy sohasida malakali bo'lismi imkonini beradi. Kompetentlik subyektning shaxsiy, kognitiv, motivatsion qadriyatlariga oid amaliy jihatlarini birlashtirgan integrativ xususiyat bo'lib, aniq bir sohada muvaffaqiyatlari harakat qila olishida ko'rindi.

Kasbiy kompetentlik boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining faoliyatini sifatli tashkil etilishini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Bugunda boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining kompetentligi qaysi mezonlar bilan belgilanishini o'rganish muhim bo'lmoqda.

### § 1.3. Bo'lajak boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining kasbiy kompetentligi tarkibi, mezonlari va darajalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PP-571Z-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>[1]</sup>gi farmonida maktab ta'limga tarbiya jarayonida "ayrim bo'shliq va kasbiy kompetentliklari" mavjudligi ta'kidlangan. Ushbu hujjatda ko'rsatilgan pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'limga muassasalari o'quv dasturlariga bo'lajak pedagog uchun mazmuniy yuklama bermaydigan ayrim fanlar kiritilganligi, pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarning mazmunan eskirib qolganligi, shuningdek pedagogik amaliyotning yuzaki o'tilishi bo'lajak pedagogning kasbiy fazilatlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, pedagogika oliy ta'limga muassasalari bitiruvchilarining o'z kasbiy kompetentliklari ishga qabul qilishda ularning malaka darajasini aniqlash uchun aniq talablarni ishlab chiqilmaganligini hisobga olib, BBTO'ning kasbiy kompetentlik tarkibini aniqlab olishimiz muhim vazifalarimizdan biri bo'ldi.

Olimlarning tadqiqotlarini o'rganar ekanmiz, quydagilarni aniqladik.

**I. M. Sharova** kasbiy kompetentlik tuzilishi muammosini o'rganar ekan, uni kasbiy - axloqiy bloklariga ajratish maqsadga muvoqqet deb hisoblaydi. Ularni quydagicha taqsimlaydi:

- kasbiy-axloqiy bilimlar bloki;
- pedagogik mahorat bloki;
- kasbiy pozitsiyalar haqidagi psixologik bilimlar bloki;
- kasbiy nazokat bloki [39].

Bizning fikrimizcha, ushu muallif diqqati axloqiy bloklarga to'xtalgani kasbiy kompetentlikni yoritish uchun yetarli emas.

**E.V.Maltseva** boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining "muhim shaxsiy fazilatlarning uyg'un majmui sifatida namoyon bo'ladi"ga kasbiy kompetentligi kasbiy ta'limga sifati bilan belgilanadi, ijobiy

pedagogik faoliyat esa bilim, ko'nikma va asosiy malakalarni beradi," deya ta'kidlaydi [57].

Bizning fikrimizcha, ushbu muallif boshlang'ich ta'limga o'qituvchisi kasbiy kompetentligining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq ochib bermagan.

**N.L.Dmitriyeva** boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining kasbiy kompetentlik tarkibida quyidagi tarkibiy qismlar aniqlanadi: mazmun (bilim), faoliyat (mahorat), shaxsiy (o'z-o'zini anglash), ijtimoiy (kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyati) [32].

Biz ushbu muallif intellektual, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ va tadqiqot guruhlarini kasbiy kompetentlikning bir qismi sifatida belgilaganligini, ammo ularning tavsifi umumiy shaklda ochiq va boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining xususiyatlarini aks ettirmaydi, deb hisoblaymiz.

**N.V.Kolpakova** boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining kasbiy kompetentligida metodologik, psixologik-pedagogik va fan kompetensiyalarini ajratib ko'rsatadi. Ushbu kompetensiyalar shajarasida metodologik kompetensiya – umumiy, psixologik-pedagogik – bazaviy, predmetli - maxsus kompetensiya sifatida belgilangan [50].

Muallif o'qituvchining asosiy vakolati ma'lumotni topish, u bilan ishslash va unga asoslangan kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatida namoyon bo'lishini ta'kidlagan. O'qituvchining asosiy kompetensiyasi - bu bolaning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'quvchini o'qitish uchun axborot va texnologiyalardan foydalanish qobiliyati, deb baho bergan. O'qituvchining maxsus vakolati, muallifning fikriga ko'ra, bolalarni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish qobiliyatida namoyon bo'ladi [50].

Ushbu tadqiqotning tahlili muallif boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati xususiyatlarini tuzilmada ham, kasbiy kompetensiya turlarida ham aks ettirmaganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ko'rib chiqilayotgan kasbiy kompetentlik turlarida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik kabi shaxsiy komponent mavjud emas.

**Shustova M.V.** boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining kasbiy kompetentligini psixo-pedagogik, ilmiy, uslubiy va shaxsiy kompetensiyaga ajratadi:

psixo-pedagogik kompetensiya kasbiy faoliyatning asosiy sifatida

shaxsiy kompetensiya - fikrlash, yetakchilik, ijodkorlik motivatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy tizim va vogelikka ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan; bu erda empatiyaning yugori darajasi o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirishni, kasbiy va pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni ta'minlaydi;

uslubiy ilmiy kompetensiya - texnik fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarning mavjudligi va ular bilan ishslash qobiliyati klassik va zamonaviy boshlang'ich sinflarda metodlar, shakkalar, vositalar va o'qitish texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatining o'ziga xos xususiyati sifatida baholanadi [143, 32-b.]

Biz ushbu fikrga qo'shilamiz, ammo boshlag'ich ta'limga o'qituvchisining kasbiy kompetentligini tavsiflashga ushbu yondashuv zamonaviy nuqtayi nazardan yetarli emas deb hisoblaymiz.

**T.M.Sorokina** boshlang'ich ta'limga o'qituvchisining kasbiy kompetentliga pedagogik mo'ljal olish, insonparvarlik pedagogik dunyoqarash, bilim va ko'nikmalarning yaxlit kasbiy tizimlari, diagnostik harakatlar va kasbiy boshqaruv tizimlari kiradi [98].

T.M.Sorokinaning so'zlariga ko'ra, kasbiy kompetentlikning eng muhim xususiyati "bolaga e'tibor berish"dir. O'qituvchining bolaga bo'lgan pedagogik e'tibori o'quvchining ta'limga, uning atrofdagi dunyoga, odamlarga va o'ziga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga qaratilgan. Bu bolaga g'amxo'rlik qilish, unga bo'lgan qiziqish, sevgi, uning shaxsiyatini rivojlantirishga yordam berish va uning individualligini maksimal darajada namoyon qilishiga yordam berishni o'z ichiga oladi.

T.M.Sorokina o'z tadqiqotida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tushunchasini uning kasbiy tayyorgarligi, kasbiy ko'tarilishi, kasbiy o'zgarishlari, motivatsion xususiyatlari va faoliyatining dinamik, protsessual jihatni sifatida tushuntiradi. U kasbiy kompetensiyani bo'lajak o'qituvchining bosqichma-bosqich kasbiy tayyorgarligi hodisasi deb biladi. Shu bilan birga, uning nuqtai nazari bo'yicha, "kompetentlik" tushunchasi yetuk o'qituvchining kasbiy faoliyatini belgilaydi. Boshlang'ich ta'limga

o'qituvchisining maxsus kasbiy kompetensiyasini ta'kidlagan T. M. Sorokina uning ko'plab bo'limlardan iboratligini ajratib ko'rsatdi:

1. Motivatsiya komponenti talaba shaxsini rivojlantirish maqsadlarining ustuvorligi asosida ta'lif va kasbiy faoliyatning maxsus yo'naliшини bosqichma-bosqich rivojlantirishda ifodalanadi.

2. Ta'lif va kasbiy faoliyat tizimini o'z ichiga olgan pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) pedagogik vaziyatni ko'p qirrali voqelik sifatida tushunish va baholash imkonini beradigan noyob tahliliy qobiliyat;

2) maxsus professional diagnostika harakatlari;

3) dizayn harakatlarining asoslari [98].

Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchisining kasbiy kompetentlik tushunchasi va tuzilishi T. M. Sorokina tomonidan juda chuqur ishlab chiqilgan. Lekin, T.M.Sorokina bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning protsessual tarkibiy qismiga e'tibor qaratadi va motivatsion, kognitiv, shaxsiy kabi komponentlar tadqiqotchingin e'tiboridan chetda qoladi.

BBTO' kasbiy malakasini rivojlantirish bilan biz pedagogik muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ichki ehtiyojlariga asoslangan maxsus va shaxsiy fazilatlar to'plamini, shuningdek, intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadigan mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish qobiliyatini tushunamiz. Mustaqil ijodiy faoliyat o'z ichiga pedagogik amaliyotni, qo'shimcha adabiyotlar o'rganishni, mustaqil loyihibar amalga oshirishni, turli tadbirdar tashkil etish va o'tkazishni, PTIK va tayanch maktablar negizida pedagogik hamkorlikni tashkil etishni oladi. Fikrimizcha, ta'lif jarayoni ana shunday samarali tashkil etilgan taqdirdagina bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalar shakllanadi, bu esa pedagogik faoliyat orqali ta'lif olish uchun qulay sharoit yaratishga yordam beradi.

Shunday qilib, biz kasbiy kompetentlik mavjudligi BBTO' raqobatbardoshligining muhim sharti, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi OTM o'qish jarayonidayoq tizimli, izchil, uzuksiz ravishda olib borilishi kerak.

Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining tashkilotchiligi ta'lif-tarbiya jarayonini reja asosida tashkil etish, o'quv vaziyatlari bo'yicha

yaror qabul qilish, kafolatlangan natijani qo'lga kiritish, nazorat qilish, kasbiy faoliyatni muvofiqlashtirish bilan belgilanadi. Ko'rib turibmizki, kasbiy pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda boshqaruv san'ati – menejmentdan foydalanish muhim ahamiyat kasbi etadi. Ushbu sohada dolzarb bo'lgan masalalar mavjud bo'lib, bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi menejerlik kompetensiyasini egallashida quyidagilarga ahamiyat berishi kerak:

1. Boshlang'ich ta'limda maqsadni aniq qo'ya bilish va bosh g'oyalar yechimiga e'tibor berish.

2. So'z va ish birligini yo'lga qo'yish.

3. Ta'limda me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan talablar ijrosini sifatli bajarish.

4. O'zida ongli intizomni shakllantirish.

5. Pedagogik ijodkorlik mevalarini tatbiq etishga erishish.

6. Ish yuritishda davlat, nodavlat tashkilotlar, ta'lif muassasalarasi, oila, mahalla bilan samimiy hamkorlik o'rnatish, yo'l saritalarini belgilash.

7. Ta'lif-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini ta'minlovchi omillarni belgilash.

Bunda bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi faoliyati quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

- tarbiya va tahsil oluvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyatini rivojlantirish;

- talabchanlik mezonlarini aniqlash;

- pedagogik mas'uliyat doirasini belgilash;


- obro'-e'tiborga ega bo'lish yo'llarini taxlil qilish;

- pedagogik ishonch indikatorlarini bilish;

- boshlang'ich ta'lif o'quvchilarining kompetensiyalarini to'g'ri idrok etish;

- ta'lif-tarbiya natijalarini kuzata bilish, baholay olish, zarur holatlarda tanqid qila olish.

Olimlar ta'kidlashicha, boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi kasbiy kompetentligining tarkibini motivatsion-irodaviy, ijroviy, kommunikativ, refleksiv komponentlar tashkil etadi[81;183] (rasm 1.3.3).



### 1.3.3 - rasm. Kasbiy kompetentlik tarkibi


motivatsion - irodavyiy komponent motivlar, maqsadlar, ehtiyojlar va qadriyatlarning mutanosib to'plam sifatida muجاجamlanadi va shaxsni kasbiy ijodiy ifodasini rag'batlantiradi;

ijroviy komponent - o'qituvchining muayyan pedagogik innovatsion texnologiyani loyihalash va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik faoliyat usullarini bilishi shaklida namoyon bo'ladi;

kommunikativ komponenti fikrni aniq ifodalash, ishontirish, bahslashish, dalillarni keltirish, tahlil qilish, fikr bildirish, oqilona va hissiy ma'lumotlarni uzatish, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va shaxsiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, hamkasblar bilan hamkorlik qilish, turli xil aloqalarda eng yaxshi muloqot uslubini tanlash qobiliyatini;

refleksiv komponent o'z faoliyati natijalarini va o'z rivojlanish darajasini, shaxsiy yutuqlarini ongli ravishda nazorat qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Biz ushbu fikrga qo'shilgan holda, tarkibini *mualliflik komponenti* bilan to'ldirish lozim deb hisoblaymiz. Ushbu komponent- o'qituvchining kasbiy o'sishini ta'minlovchi o'zi tomonidan yaratilgan o'quv- metodik materiallarini portfoliosini tuzish, ya'ni o'z tajribalarini tizimlashtirish, klassifikayalash, patentlash va tarqatishga doir kompetensiyalarni qamrab oladi. *Mualliflik komponenti* BBTO'ning kasbiy kompetentlik tarkibiga kiritilishi mualliflik metodikalari va ularga asoslangan maktablarni yaratilishiga zamin hozirlaydi (1.3.4-rasm).



### Rasm 1.3.4- Boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi kompetentetligi tarkibi

Boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi kasbiy kompetentligining ushbu xususiyatlarini yaxlitlikda ko'rib chiqish mumkin, chunki ular integral xususiyatga ega, ular umumiy kasbiy tayyorgarlikning mahsulidir.

Biz izlanishlarimiz natijalariga tayangan xolda BBTO'ning kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi har bir kompetensiyani egallash darajalarini quydagicha deb belgiladik:

- pertseptiv daraja;
- progressiv daraja;
- refleksiv daraja [109; 260 - b.]

Pertseptiv daraja mezonlari:

- kichik muktab yoshidagi bolaning tavsifnomasi;
- BT o'qituvchi imidji;
- notiqqlik;
- pedagogik munosabatlarni ko'lami;
- hujjatlar yuritilishi.

Progressiv daraja mezonlari:

- metodlar tasnifi;
- dars tuzilmasi;
- diagnostika ishlari;
- kichik innovatsion loyihalar;

-tashkiliy ishlar.  
Refleksiv daraja mezonlarni:  
-pedagogik tahlil;  
-bibliografik terapiya;  
-AKT;  
-ijodiy hisobot;  
-o'z ustida ishlash.

Har bir kompetensiyanı rivojlanganlik darajasını deskriptorlar yordamida belgilash mumkin. Deskriptorlar - bu talaba kompetensiyalarining shakllanish darajasini tavsiflovchi va ularning namoyon bo'lish darajasini (minimal, o'rtacha, maksimal) aniqlash imkonini beruvchi sifatli baholash mezonlari. Deskriptorlar - bu talabaning yutuqlari xulq-atvorida, shuningdek, uning aniq faoliyat natijalari va mahsulotlari darajasida bevosita kuzatiladigan operatsion ko'rsatkichlar. Biz buni quydagicha belgiladik(1.3.6 - jadval):


#### 1.3.6-jadval

#### Kompetensiya rivojlanganlik darajalari va deskriptorlar

Kompetensiya darajalari Deskriptorlar	minimal	o'rtacha	maksimal
perseptiv	✓ kuzatish	✓ ziyraklik	✓ analiz va sintez
progressiv	✓ aktuallashtirish	✓ motivatsiya	ish traektoriyasini belgilab o'z ustida ishlash
refleksiv	✓ nazorat	✓ korrektsiya	✓ yangi istiqbol

Kasbiy kompetentlik qanday shakllanadi? O'qituvchi kompetentligini shakllantirishning asosiy manbasi oliy kasbiy ta'limdir. Kelajakda olingen bilim va ko'nkmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi. Bularni formulada taqdim etish

mumkin: «Bilaman+Bajarishni istayman+Bajara olaman+ Bajardim = Kompetentlik» (1.3.5 - rasm)



#### 1.3.5 - rasm. Kompetentlik formulası

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bosqichma-bosqich doimiy ta'kidlangan (konstatatsiya) tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. O'sahibu jarayonni quyidagi bosqichlarga bo'lishni tavsiya qilamiz:

- Maxsus ma'lumot olish.
- Amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.
- Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o'tish.
- Kasbiy tajribaga ega bo'lishda mualliflik metodikalarini o'rjanish.
- O'z sohasida professionallikka erishish.
- Yangi bilim va ko'nikmalarga asoslangan tajriba asosida shaxsiy mualliflik metodikasini yaratish (1.3.6 - rasm):



#### 1.3.6 - rasm. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining muvaffaqiyati ko'proq bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining shaxsiy motivatsiyasi, xususiyatlari, holatlariga bog'liq.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy malakasini qanday tez va mustaqil ravishda tekshirish mumkin? Muvofiqlikni qanday baholash kerak? Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan tizimdir:

- kaşbiy bilim darajasini baholash uchun etalonga mon mezonlar ishlataladi;
- amaliyot unumdorligi va ish sifati;
- shaxsiy xususiyatlarning ta'lim yo'nalishiga muvofiqligi;
- qo'shimcha ko'nikmalar mavjudligi;
- shaxsiy o'sish va kasbiy rivojlanish istagi.

Zamonaviy BBTO'qituvchisi o'z kompetentligini rivojlantirish ekan, u quyidagi hislatlarga ega bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz:

1. Tashkilotchi pedagog - o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydi, jamoa bo'lib ishlaydi va ishlashga o'rgatadi.
2. Metodist - ta'lim jarayonida o'quvchilarning muammolarini yechishda yordam beradi va qo'llab - quvatlaydi.
3. Faylasuf - bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o'z qarashlarini asoslaydi.
4. Tajribali yaqin do'st - o'quvchilar oldidagi to'siq va muammolarni bartaraf yetishga yordam beradi.
5. Tadqiqotchi - innovator - muntazam ravishda o'z ustida ishlaydi, yangi g'oyalarni tatbiq etadi.
6. Menejer -maqsadga yetishish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, o'qitish uslublarini tanlaydi, o'quvchilarni o'qishga o'rgatadi, ijodiy yondashadi.
7. Maslahatchi-tyutor - shaxsiy namunasini o'rgatadi, o'quvchilarga asosiy yangi ma'lumotlarni yetkazadi va amaliyotga tatbiq etishga o'rgatadi.
8. O'quvchilarning aqliy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga yordam beradi, ularning hayotiy ko'nikmalarini oshiradi.
9. Murabbiy-psixolog(kouch) - u o'zini yaxshi biladi va tushunadi, ta'limda ijobiy psixologik muhit yaratadi va unga ta'sir qiladi.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi – bu o'ziga xos ijodkorlik bilan o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashuvi asosida

seziladigan zehn o'sishidir. Hozirgi kunda yuksak kasbiy tayyorgarlik deyliganda mutaxassisning turli qobiliyatları tizimli xarakterda rivojlanganligi va ulardan imkonli boricha samarali foydalanish tushuniladi. Bugungi kunda asosiy masala insonning kasbiy fasilitatlarini rivojlantirish va rivojlantirish uchun maqbul imkoniyatlar va shart-sharoitlarni ta'minlaydigan, bilim, ko'nikma, qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarini an'anaviy ravishda uzatuvchi modelni shakllantirishdir. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini pedagogik toifadagi va unumta'lim fanlarini didaktik sintez va integratsiya asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur, deb hisoblaymiz.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi shartlar zarur:

PTIK negizida oliy maktab - boshlang'ich maktab - talaba uchlilik hamkorligini o'rnatish;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim diagnostikasi;

BBTO' kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mustaqil pedagogik faoliyatni tashkil etish.

Oliy maktablarning ta'lim tizimi bo'lajak kadrlarning muvaqqiyatga erishishiga, ularda iroda va kasbiy xarakterni shakllantirishga, hamkasblar orasida "o'rnashib olish" qobiliyatini shakllantirishga, ijodiy kasbiy tafakkurni, o'qitish va o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. va o'z ustida ishslash kerak, u hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalarni takomillashtirish va o'rgatishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni amalga oshirish uchun shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish dolzarbdir.

Shyy ta'lim tizimining moslashuvchanligi va variativligini ta'minlaydi, bu esa globallashuv sharoitida sifatli va miqdoriy o'zgarayotgan vazifalarni bajarishga tayyor mutaxassisni yetkazib berishga zamin bo'ladi.

**II BOB. SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISI KASBIY  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY-  
TEXNOLOGIK TIZIMI VA DIDAKTIK TA'MINOTI**

**§ 2.1. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy  
kompetentligini rivojlanirishning pedagogik shart-sharoitlari**

XXI asrda O'zbekistonning muhim strategik yo'nalishlaridan biri xodimlarning kasbiy kompetentligi, ijodkorligi va faolligiga innovatsiyalarni qo'llash ustuvorligiga asoslangan innovatsion rivojlanish iqtisodiyotiga o'tishdir. Yangi iqtisodiyotning negizini zamonaviy jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanmish inson kapitali tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlanirish konsepiyasida oliy ta'lim tizimini rivojlanirishning strategik maqsadlari sifatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, talablardan kelib chiqqan holda inson kapitalini rivojlanirish belgilangan [2].

Zamonaviy kadrlarni tayyorlash muammosi dolzarblashayotganligi mamlakatimizni modernizatsiya qilish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish maqsadini mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir, yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan kadrlar amalga oshirishi mumkinligi bilan izohlanadi.

O'qituvchi nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki ular asosida siyosiy-ijtimoiy kompetensiyalarni, ko'p madaniyatli jamiyat hayoti bilan bog'liq kompetensiyalarni, og'zaki va yozma nutq kompetensiyalarini shakllantirish uchun ham javobgardir. Shu bilan birga, o'quvchilarda texnik va texnologik ko'nikmalar, ularni tanish yoki notanish vaziyatlarda kundalik hayotning turli masalalarini hal qilishda foydalanishga tayyorlik, o'z-o'zini anglashni yuksaltirish kabi hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Butun dunyoda integrallashuv hamda globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda mamlakatimizda xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini modernizatsiya qilish tadqiqotlariga alohida e'tibor qaratilmogda. Kompetentli pedagog kadrlar tayyorlash, ularning

malakasini oshirish, mehnatini rag'batlantirishga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda.

O'quvchilarning muvaffaqiyati ta'limda sodir bo'ladigan ta'lim jarayonlarining tabiatи va sifati, eng avvalo, o'qituvchining kasbiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqligi aniq. Ishning birinchi kunidan boshlab yosh o'qituvchi ko'p yillik ish stajiga ega o'qituvchi bilan bir sil mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va tajribasizligi uchun unga imtiyoz berilmaydi. O'qituvchining kasbiy kompetentligi ushbu faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

BBTO' kasbiy tayyorgarlik mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or mualliflik uslublarini joriy etish, oliy ta'lim tizimining imkoniyatlarini kengaytirib, kasbiy tayyorgarlik mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, talabaning kasbiy kompetensiyasini rivojlanirish masalalarini hal qilish uchun ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi yorqin dunyoqarashga ega, kasbiy muammoli vaziyatlarni hal qila oladigan, o'z-o'zini rivojlanirishga qodir ijodiy shaxs bo'lishi kerak.

Uning kasbiy kompetenetiligi nazariy va amaliy bilimlarga asoslanadi va quyidagilardan iborat:


pedagogik faoliyatni tashkil etish nazariyasi;  
aniq pedagogik muammolarni hal qilish qobiliyati;  
qadriyat yo'nalishlari;  
kognitiv rivojlanish darajasi;  
yetuklik xususiyatlari: axloqiy-estetik kamolot, keng dunyoqarash, yuksak darajadagi tushuncha, e'tiqod;

pedagogik madaniyat: rivojlangan kasbiy nutq va uning ifodaliligi, pedagogik diplomatik muloqot uslubi, kasbiy faoliyatga ijodiy munosabat, ta'lim jarayonining boshqa ishtiroychilariga surmat;

o'zini nazorat qilish qobiliyati.

Pedagogik jarayon muvaffaqiyatlari bo'lishi uchun uni nazorat qilish kerak. O'qituvchi stressga chidamli bo'lishi, o'z his-tuyg'ulari va ularning namoyon bo'lishini nazorat qilishi, xatti-harakatlarini tartibga solishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka doirasi jadvalida bakalavriat 6-bosqichga to'g'ri keladi va bakalavr darajasiga ega bo'lgan oliy ta'lif dasturlarida olingan malaka, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarning mavjudligini bildiradi. Har bir bakalavr professional kompetentlikga ega bo'lishi kerak. Professional kompetensiyalarning ikki toifasi: umumiy kasbiy va maxsus kasbiy kompetensiyalari mavjud(2.1.7 - rasm).



**2.1.7 -rasm. Professional kompetensiyalar**

Muayyan sohadagi umumiy kasbiy kompetensiyalar - bu kasbiy sohaga tegishli bilimlar, amaliy ko'nikmalar va munosabatlardan tizimi bo'lib, ular bir sohada bir kasbdan boshqasiga o'tishi mumkin. Umumiy kasbiy kompetensiyalar tizimi ishchi kuchining nafaqat vertikal, balki gorizontal harakatchanligiga ham yordam beradi, kompetensiyalarni boshqa kasblarga o'tkazish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu model tanlangan lavozim doirasida turli xil taraqqiyot yo'llariga qiziqqan moslashuvchan va faol ishchi kuchini shakllantirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Umumiy kasbiy kompetensiyalar kasbiy standartda asosiy kompetensiyalardan keyin belgilanadi va ularning soni 8 dan 14 gacha bo'lishi mumkin. Odatda, umumiy kompetensiyalar quydagilarga qaratiladi:

yangi texnologiyalar va sanoatni rivojlantirishga e'tibor qaratish;

sifatni ta'minlash va uni doimiy ravishda yaxshilash;  
mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik talablariga rivoj qilish;  
atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rivoj qilish;

tadbirkorlik.

Umumiy kasbiy kompetensiyalar quydagicha shakllantiriladi:  
boshlang'ich ta'lif o'quvchilarini o'qitish standartlariga rivoj qilish maqsadida hujjatlarni tahlil qilish.

moddiy va mehnat resurslarini samarali boshqarish.

xizmat vazifalarini bajarishda tegishli qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazaga rivoj qilish.

favqulodda vaziyatlar va yuqori xavfli vaziyatlarni samarali boshqarish.

sog'liqni saqlash va xavfsizlik sohasidagi qonun hujjatlari qoidalarini qo'llash.

Maxsus kasbiy kompetensiyalar - bu ma'lum resurslarni jaib qilish orqali kasbiy faoliyat doirasidagi aniq belgilangan vazifalarni bajarishga yordam beradigan bilim, ko'nikma va munosabatlardan tizimi.

Ushbu kompetensiyalar ma'lum bir kasbga tegishli talablar doirasida shakllantirilishi, bu kasb doirasidagi ishlarni ro'yxatini bajaruvchi shaxs tomonidan bajarilishi kerak. Maxsus kompetensiyalar o'qitish va amaliy tajribani to'plash orqali shakllanadi. Ular ma'lum bir ish va ma'lum bir malaka darajasi bilan bog'liqligi sababli shunday nomlanadi.

BBTO'ning maxsus kasbiy kompetensiyalari quydagilarni o'z ichiga olishi mumkin deb hisoblaymiz:

- turli ta'lif dasturlarini ziyrak o'rganish, o'zgartirish va qo'llash jarayonidagi ko'nikmalar;
- bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajarish ko'nikmalari;
- taqdimot yoki seminarlar o'tkazishda samarali muloqot qobiliyatları;
- ilg'or ta'limi dastur yoki ilovalar bilan ishslash bo'yicha amaliy ko'nikmalar.

Maxsus kasbiy kompetensiyalar funktsional vazifalar nomi bilan bir xil fe'lni ishlatishdan qochib, harakat fe'llaridan foydalanish (tartibga solish, amalga oshirish, belgilash) orqali shakllantiriladi, misalan:

- taqvim - mavzu rejasini tuzish;
- didaktik tarqatmalar tayyorlash;
- kompyuterda ishslash va h.k.

Maxsus kasbiy kompetensiyalar bir xil bilim, ko'nikma va munosabatlarni talab qiladigan ish topshiriqlarini birlashtirish orqali aniqlanadi.

Bilim "Men nimani bilishim kerak?" savoliga javobni shakllantirish orqali aniqlanadi (masalan: texnologik jarayonlar, asbob-uskunalar va didaktik materiallarning xususiyatlari, dars tamoyillari, davlat ta'lif standartlari va boshqalar).

Amaliy ko'nikmalar "Men nima qila olishim kerak?" degan savolga javobni shakllantirish orqali aniqlanadi (masalan: dars konspektini yezish, dars uchun materialni saralash, raqamli uskunalardan foydalanish, noroziliklarni bartaraf etish va h.k.)

O'zaro munosabatlar "Ish topshiriqlarini qanday bajarishim kerak?" degan savolga javob berish orqali aniqlanadi (masalan: ehtiyojkorlik bilan, mas'uliyat bilan, kasbiy, biror narsaga muvofiq va hokazo).

To'liq ma'nodagi kompetensiyani aniqlash uchun, qoida tariqasida, ikkitadan sakkiztagacha mehnat vazifalari talab qilinadi, ammo ba'zida ish vazifalari shunchalik murakkabki, ularni to'liq aniq bir kompetensiyaga aylantirish mumkin emas. Kompetensiyalar mantiqiylar ketma-ketlikda taqdim etiladi. Har bir kompetensiya uchun tegishli ish vazifalari ko'rsatilishi, shunda kasbiy standartga kiritilgan barcha ish vazifalari hisobga olinishi mumkin. Shakllangan maxsus kompetensiyalar soni 12 dan 20 gacha o'zgarishi mumkin.

BBTO' kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmunini o'rganish ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni tashxis va bashorat qilish imkoniyatini beradi. Ta'lif sifatini belgilovchi mezon va ko'rsatkichlar kasbiy kompetensiyani aniqlash, o'quv va amaliy dasturlarning maqsad va vazifalarini ishlab chiqish, ta'lif usullari mazmunini tanlashda vazifalarini ishlab chiqish, ta'lif usullari mazmunini tanlashda olingan ma'lumotlar asosida belgilanishi kerak. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv qondirilishi esa BBTO'ning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samarasini belgilaydi. Shunday ekan bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish dolzarbi pedagogik muammo hisoblanadi.

Fikrimizcha, kasbiy kompetentlik o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida vujudga keladi, shaxsning kasbi, niyatlar

to'g'risidagi g'oyalarning shakllanishidan boshlab kasbiy tarjimai holi tozaguniga qadar uning individual-o'ziga xos yo'lini (traektoriyasini) bildiradi[110].

Biz boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining o'qitish tajribasini tahsil qilar ekanmiz, bilim sifatini oshirishning quyidagi yo'nalishlarini aniqladik.

pedagogik ta'lif mazmunining psixologik, pedagogik va sotsiologik yo'nalishi;

bo'lajak o'qituvchilarni darslar asosida muloqotga amaliy tayyorlash;

pedagogik amaliyotni isloh qilish;

ta'lifning amaliyotga yo'naltirilgan shakllaridan foydalanish: mikro-ta'lif, simulyatsiya misollari, video darslarni tahlil qilish, maktab va laboratoriya mahorat darslari;

axborot texnologiyalaridan foydalanish;


mustaqil ta'lif oladigan talabalar ulushini oshirish [110].

Bo'lajak o'qituvchiga kasbiy moslashishda professional yordam kerak, chunki muvaffaqiyatizliklarni boshdan kechirish, o'z qo'rquivini haddan tashqari oshirib yuborish, mas'uliyatni anglash - bularning barchasi pedagogik mas'uliyatdan qo'rqib, umidsizlikka va maktabni tark etishga olib kelishi mumkin. Bunda bo'lajak pedagogni qo'llab-quvvatlash, unga manzilli yordam ko'rsatishi zarur.

O'quv jarayonida ta'lifning amaliy va ijtimoiy jihatlarini uyg'unlashtirib, bir qator yangi imkoniyatlar hosil bo'lmoqda, SHYYni amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu holda maxsus ta'lif dasturlari mazmunini loyihalashtirish PTIK tizimi orqali amalga oshiriladi. PTIK – uzlusiz ta'lif tizimidagi barcha ta'lif turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy - metodik tuzilmalarining bir butunligidir[75].

Boshlang'ich maktab o'qituvchilari o'zlarining kasbiy rivojlanish muammolarini hal qilishda tanlash erkinligini, mustaqil ijodkorlikni va tadqiqot imkoniyatlarini afzal ko'radilar. Shundan kelib chiqib, "Rivoj" loyihasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchilari uchun innovatsion maktab yaratishga qaror qildik. Pedagogik ta'lif innovatsion klasteri "Maktab-laboratoriya" "Rivoj" loyiha guruhining tajriba-sinov ishlabi chiqildi. PTIK asosida

tashkil etilgan ushbu maktab Tayanch maktabi bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. (2.1.8 - rasm):



### 2.1.8 – Rasm. PTIK asosidagi hamkorlik

O'qituvchining shaxsiy rivojlanishi qanchalik muvaffaqiyatli bo'lsa, uning kasbiy faoliyatda o'zini o'zi anglash imkoniyatlari shunchalik kengayadi. "Rivoj" innovatsion maktabida talabaga o'z kasbiy qirralarini to'liq ochib berishga imkon beruvchi ta'lim shakllaridan foydalandik: trening mashqlari, mualliflik lahzalar, pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qilish, ijodiy daqiqalar, metodik yutuqlar tahlili.

Kasbiy moslashuv ish maqsadlari, vazifalari va usullari bo'lajak o'qituvchining muammolari bilan bog'liq bo'lsa, yuqori samara beradi. Rivoj maktabida maxsus usullar yordamida pedagogik to'siqlar aniqlanadi va tashxis qilinadi. Kasbiy tayyorgarlik diagnostikasini amalga oshirish korrektsiya talab qildigan faoliyat sohalarini aniqlashga va o'z-o'zini baholashga yordam beradi.

Dasturning maqsadi bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbga kirish jarayonining eng qulay (optimal) sharoitini yaratishdir:

bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qiyinchiliklarini tashxislash va ularni hal qilishga yordam berish;

BBTO'ga psixologik, pedagogik va uslubiy yordam ko'rsatish;

BBTO'ning umumiy va kasbiy madaniyatini oshirish;

BBTO' eksperimenti jarayonida "Tayanch maktabi" faoliyatini joriy etish va uning ilg'or tajribasini o'rganish kerak.

Biz BTTO' kasbiy kompetentligini oshirish uchun eng dolzarb vazifalarni belgilab oldik:

amaliy - kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy masalalarni hal qilish samaradorligini ta'minlaydigan vakolatlardan foydalanish;

faol-tehnologik-kasbiy ta'lim mazmuniga moslashtirilgan hamda talabaning mustaqil o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini ta'minlovchi yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

ta'lim - tashkiliy va boshqaruva tajribasini, muloqot madaniyatini, talabalarning shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantirish;

diagnostika (tashxis) - talabaning malaka darajasini diagnostika qilishni ta'minlaydigan samarali monitoring tizimini ishlab chiqish.

Dasturni amalga oshirish tamoyillari:

- \* amaliy yo'nalish;
- \* uzviylik va izchillik;
- \* samaradorlik;
- \* ishning turli shakllari va usullarining optimal kombinatsiyasi.

Dasturni amalga oshirish shakllari:

- \* innovatsion mahorat darslari;
- \* kreativ ustaxonalar;
- \* psixologik treninglar;
- \* pedagogik vaziyatlarni modellashtirish;
- \* rolli o'yinlar;
- \* interaktiv ma'ruzalar;
- \* davra suhbatlari;
- \* individual maslahatlashuvlar;
- \* o'z-o'zini tarbiyalash (2.1.9 - rasm).

Kasbiy to'siqlarni aniqlash usullari:

- \* muloqot va tashkilotchilik kompetensiyalarini baholash;
- \* kasbiy kompetentlik komponentlarining rivojlanish darajasini aniqlash;
- \* BBTO'ning ishini baholash;
- \* shaxsiy tashvish shkalasi (J. Teylor);
- \* Tayanch maktab darslariga tashrif buyurish, ularning keyingi muhokamasini o'tkazish;
- \* BBTO'ning o'quv faoliyati va o'quv motivatsiyasini o'rganish.



**rasm 2.1.9. Dastur shakllari**

Dasturni amalga oshirish natijalarini monitoring qilish va tuzatish algoritmi:

1. Diagnostika materialini tahlil qilish (so'rovnomalar, testlar), individual maslahatlar (talab bo'yicha).
2. Tanlangan metodlar bo'yicha dars davomida qo'llash va uni batafsil tahlil qilish.
3. Guruhda amaliy yoki individual suhbatlar orqali uslubiy yordam ko'rsatish.
4. Talabalarning shakllangan mustaqil ishlash ko'nkmalar darajasini diagnostika qilish orqali o'quv faoliyatini tashkil etish samaradorligini nazorat qilish (dinamikada).
5. Kvartal, yarim yillik va yillik natijalar bo'yicha talabalarning kompetensiyalarni egallash dinamikasini kuzatish.

Dasturni amalga oshirish natijasida talaba quyidagi natijalarga erishadi:

- maktab ta'lif jarayoniga moslashuv;
  - uzluksiz ta'limga ehtiyojning ortishi;
  - pedagogik tayyorlikdan kasbiy kompetentlikgacha kasbiy o'sish;
  - ijodiy faoliyat orqali mualliflik uslubining shakllanishi.
- Dasturda biz BBTO'ning kompetentligini oshirish ehtiyojlariga javob beradigan eng muhim va maqbul ta'lif texnologiyalarini aniqladik:

tadqiqot loyihalari texnologiyalari;  
psixologik-pedagogik treninglar;  
pedagogik muloqot;  
shaxsiy ta'lif texnologiyalari;  
innovatsion AKT.

Uslubiy ishning barcha turli shakl va usullarini o'rganish faoliyatda katta natijalar beradi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarini tayyorlashda seminarlar, mahorat darslari, pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qilish, rolli va ishchi o'yinlar, individual maslahatlashuvlar va mustaqil ta'lif kabi ta'lif shakllarini tanlash mumkin.

Dastur uch bosqichdan iborat:

O'qishning birinchi bosqich maqsadi - talabaning kasbiy moslashuvi.

Ikkinci bosqich - takomillashuv deb nomlanadi. Uning maqsadi - bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish.

Uchinchi bosqich refleksiya deb ataladi, uning maqsadi pedagogik faoliyatni tahlil qilish usullarini o'zlashtirish va kasbiy amaliyotning individual uslubini shakllantirishdir.

Birinchi bosqich, ya'ni kasbiy moslashuv vazifalari:

yosh o'qituvchilarning uslubiy va psixologik qiyinchiliklarini aniqlash;

maktab ishida ishtirok etish orqali o'quvchini ijodiy izlanishga jah etish;

kasbiy qiyinchiliklarni engishga yordam beradi; pedagogik faoliyatni mustaqil bajarish tajribasini shakllantirish.

1-ma'ruza. Darsni tashkil etish asosları (darsning maqsadi, dars uslubi, o'quvchilarning biliş faoliyati bosqichlari, maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari).

2-ma'ruza. Zamonaviy o'qituvchi ideal va real siyomasi (esse, kasbiy standartlar ramkasi).

3-ma'ruza. Kompetensiya va kompetentlik: tadrijiy yondashuv.

4-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibi va darajalarining kompetentlik matritsasi.

5-Seminar. Refleksiv tahlil.

Ikkinch bosqich - takomillashtirish. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik vakolatlarini rivojlantirish vazifalari:

- muhim kasbiy fazilatlarni tarbiyalash;
- psixologik-pedagogik, uslubiy yordam ko'rsatish;
- umumiy kasbiy madaniyatni rivojlantirish;
- mustaqil pedagogik faoliyat tajribasini oshirish.

1-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi.

2-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi diagnostikasi.

3-interaktiv ma'ruza. O'qituvchining kasbiy rivojlanishi deformatsiya va shaxsiyat buzilishining oldini olish. Individual kasbiy rivojlanish yo'nalishini loyihalash.

4-ma'ruza. Pedagogik faoliyatda monitoringning roli. Pedagogik monitoring turlari. Monitoring funktsiyalari. Monitoring natijalarini ko'rib chiqish strategiyasi. Pedagogik faoliyat monitoringini rejalashtirish bo'yicha amaliy dars.

5-Seminar. Ishbilarmonlik o'yini «O'quv faoliyatida noan'anaviy usullardan foydalanish». Dars parchalarini namoyish etish. O'yin ishtiroychilarining erkin muhokamasi.

5 - Ikkinch bosqich natijalarini sarhisob qilish.

Uchinchi bosqichi - refleksiya. Pedagogik texnologiya va ijodkorlikning amaliy vazifalari:

pedagogik vaziyatga qarab o'z faoliyatini fikrlash va qayta qurish orqali o'z tajribasini o'zlashtirish qobiliyati;

ijodiy qobiliyatlarni va kasbiy kompetensiyani rivojlantirish; pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantirish.

1-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining harakat dasturini yaratish (shaxsiy kasbiy rivojlanish kundaligi).

2-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi portfoliosi.

3-ma'ruza. Pedagogik vaziyatlarning konstruktiv yechimi.

4-ma'ruza. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi portfoliosi (elektron formatda).

5-seminar. Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish, moslashuv muammolarini kamaytirish va bo'lajak o'qituvchilarning o'skasbiga muvaffaqiyatlari kirishishlariga yordam beradigan quyidagi vazifalar belgilab berildi:

1. Oson moslashishni ta'minlash uchun kelajakdag'i boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali shakllaridan foydalanish, kasbiy bilimlarni olish uchun axborot maydonini yaratish.

3. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ish faoliyatini hamkor - ustoz bilan birgalikda rejalashtirish.

4. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini korporativ madaniyatga jalg qilish (korporativ madaniyat deganda muassasada o'rnatilgan barqarorlikni, ichki jarayonlarni tashkil etish tamoyillarini, rivojlanishni ta'minlovchi strategiyalarni tushunamiz) ta'lim muassasasi an'analari atrofida birlashtirish.

Bo'lajak mutaxassislar bilan ishlash tizimi:

bo'lajak mutaxassisning ish joyiga oson moslashishi uchun sharoit yaratish;

uslubiy adabiyotlar, uzoq muddatli rejalar uchun materiallar, didaktik ta'minot, hamkasabalar tajribasi bilan tanishish;

o'quvchi va ularning ota-onalari nigohida o'qituvchi obro'e-tiborini shakllantiruvchi materiallar bilan ishlash;

qursdoshlar o'rtasida o'zaro yordam ishlarini tashkil etish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kompetetligini rivojlantirish mexanizmi:

o'qituvchilarning amaliyot, murabbiylilik tajribasi, pedagogik burtashmalar ishida ishtiroy etish sohasidagi malakasini oshirish;

mustaqil ta'lim - ta'lim dasturini mustaqil o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish rejasiga muvofiq ishlash;

kompyuter va chet tili kurslarida o'qitish - sertifikatga egalik; bo'lajak mutaxassislar faoliyatini uslubiy ta'minlanishini tashkil etish.

Ushbu jarayon uchta subyektining o'zaro manfaatlariga ta'sir qiladi talaba, ustozning o'zi va ta'lim muassasasi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining malakasini oshirish faoliyatini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:  
kompetentlik darajasini belgilovchi attestatsiya;  
bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatini monitoring qilish;  
muntazam baholash (trimestr, semestr, yillik) asosida rag'batlantirish.

Ushbu baholash jarayonida BBTO'ning o'z vazifalariga munosabati, ko'rsatmalarining bajarilishi, individual ish rejalarining bajarilishi, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qo'shgan hissasi hisobga olinadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi kompetensiyalarning egallanishida namoyon bo'ladi. Turli yondashuv va nazariyalarni o'rganish natijasida biz 8 ta shaxsiy kompetensiyani tanladik, ularni bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining faoliyati texnik, didaktik, kommunikativ, boshqaruv, diagnostika, texnologik, ijodiy va refleksiv kompetensiyalar orqali muvaffaqiyatlari rivojlanadi.

Kasbiy kompetentlik tashkil etuvchi har bir kompetensiyani tavsiflab chiqamiz.

**Predmetli** – muayyan fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash kompetensiyasi.

**Didaktik** – bilim, ko'nikma, tajriba uyg'unligiga asoslangan, o'quv jarayonining istalgan natijasini kafolatlaydigan integratsiyalashgan, dinamik kompetensiyasi.

**Kommunikativ** – muloqotning maqsadlari, sohalari va vaziyatlari bilan adekvat muloqot qilish qobiliyati va haqiqiy tayyorligi, og'zaki muloqotga va o'zaro tushunishga tayyorlik.

**Menejerlik** – kasbiy pedagogik muammolarni yuqori samaradorlik bilan hal qilish qibiliyati va tayyorgarligini belgilaydigan shaxsning integral, dinamik kompetensiyasi.

**Diagnostik** – o'quv jarayonida diagnostika ko'nikma va malakalaridan dinamik foydalanish, diagnostika va o'z-o'zinibaholash usullari, o'quvchilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatuvchi yaxlit, dinamik kompetensiya.

**Texnologik** – axborot bilan ishslash qobiliyati (to'plash, qidirish, uzatish, tahlil qilish); o'z kasbiy faoliyatini modellashtirish va loyihalash; jamoa ishini modellashtirish va loyihalash; zamonaviy AKT asosida tashkiliy muhitda navigatsiya qilish qobiliyati; kasbiy

faoliyatida zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish kompetensiyasi.


**Kreativ** – an'anaviy yoki qabul qilingan fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan tubdan yangi g'ayrioddiy g'oyalarni yaratishga tayyorlik, shuningdek, pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish integral, dinamik kompetensiyasi.

**Refleksiv** – kasbiy rivojlanishning pedagogik mexanizmini o'shashtirishda o'ziga va kasbiy faoliyatiga nisbatan analitik qobiliyat va pozitsiyani ko'rsatuvchi yaxlit dinamik kompetensiya.

Biz ushbu kompetensiyalarini BBTO' Kompetentlik matritsasida ko'rsatmoqchimiz(2.1.10 - rasm):

Kompetensiyalar matritsasi

predmetli didaktik kommunikativ menejerlik diagnostik refleksiv texnologik kreativ



### 2.1.10- rasm. Kompetensiyalar matritsasi

Ushbu matritsadagi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali pedagogik kompetentlikning shaxsiy ko'rsatkichlari sektorlarda 5 hatti shkala bo'yicha talabaning o'zi tomonidan baholanib boradi. Doira markazi 0 bilan belgilandi. Har bir sektorni 5ta parametr bo'yicha belgilab borishlari kerak(rasm 2.5):

1. So'z birikmasi sifatida tanish.
2. Kategoriya sifatida bilaman.
3. Taxminiy bajara olaman.
4. Anik bajaraman.
5. Bilganimni boyitmoqdaman.

Biz talabalarga har bir sektorni beshta o'zlariga tanish yoki mavjud bo'lgan aniq mezonlar bilan belgilab olishlarini maslahat berdik. Bu yerda bir nechta maqsadlarga erishildi. Dastlabki sinovlarda ushbu vazifa orqali biz talabalarning bilim doiralarini aniqlab olgan bo'lsak, keyingi bosqichlarda ishlash doirasini aniqlab olishlari uchun qo'lladik.

Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi kompetensiyalarini qiyosiy tahlilda ko'rib chiqamiz(2.1.7 - jadval):

### **2.1.7-jadval**

#### **Kompetenlikni tashkil etuvchi komponentlar qiyosiy tahlili**

<b><i>Yevropa pedagoglari</i></b>	<b><i>I.A. Zimnyaya</i></b>	<b><i>G.R. Tojiboeva</i></b>
artistik	sog'lijni saqlash	predmetli
notiqlik	qadriyat	didaktik
ritorik	integratsiya	kommunikativ
ekspressiv	fuqarolik	menejerlik
musiqiy	o'z-o'zini	diagnostik
texnik	takomillashtirish ijtimoiy	texnologik
improvizatsion	hamkorlik	kreativ
sport	muloqot qilish	refleksiv
	kognitiv	
	faoliyat	
	axborot texnologiyalari	

#### **§ 2.2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metod, shakl va vositalari**

O'qituvchi innovatsion jarayonlarni boshdan kechirayotgan zamonaviy maktab kontekstiga insonparvarlik qadriyatlarini kiritish, mustaqil ravishda professional, shaxsiy va ijtimoiy fikrlashi kerak. Biroq, ijtimoiy-pedagogik fanlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchi oliy maktablarda pedagogik faoliyatga etarlicha tayyoragarlik ko'rgan taqdirda ham, uning maktab faoliyatiga shaxsiy va kasbiy moslashuvi uzoq va qiyin bo'lishi mumkin. Bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi uchun yangi faoliyatga kirish barcha

ichki resurslarni safarbar qilishni talab qiladigan yuqori hissiy stress bilan birga keladi. Mazkur muammoni hal qilish uchun bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shaxllantirish jarayonini o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlantirish, toshunish va optimallashtirish uchun motivatsiya yaratadigan moslashuvchan va mobil tizimni yaratish zarurati mavjud. Ushbu tizim yosh mutaxassisiga amaliy va nazariy yordam ko'rsatish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish ehtiyojini aks ettiradi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchilar bilan ishlash shakli sifatida zamonaviy o'quv jarayonida ShYY mutaxassislarni tayyorlash uchun boshqa qo'llaniladigan boshqaruv va ta'lif texnologiyalarining yetarli emasligini va ushbu turdag'i munosabatlardan mutaxassislarning kasbiy rivojlanishini muvaffaqiyatli boshqarish uchun zaxira sifatida foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi.

N.Indiaminov va B.Babajonovlar shaxsga yo'naltirilgan ta'lifning asosiy mohiyati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ta'lif shaxsiyining shaxsiy tajribasini o'quv jarayonining markaziy subyekti sifatida ochib berish va uni tegishli ilmiy mazmunga aylantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar [41].

ShYY professional moslashuvning eng samarali shakllaridan biri bo'lib, u shaxsiy tajriba orttirish jarayonini amalga oshiradi va kasbiy kompetentlikni oshirishga yordam beradi. ShYY vazifasi BBTO' o'zini anglash, shaxsiy fazilatlarini, muloqot va boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishdir. BBTO' hamkasblar, talabalar (o'quvchilar), ota-onalarga pedagogik ta'sir qilish uchun yassi obro'ga ega bo'lishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabaning kasbiy salohiyatini yozaga chiqarish, jamiyatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish, shaxsiy kasbiy manfaatlarini rivojlantirish, madaniy va kasbiy dunyoqarashini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini va kasbiy ko'nikmalarini charxlash, o'z-o'zini o'rganish va kasbiy mahoratini oshirish ehtiyojlariga javob beradigan ta'lif innovatsiyasi.

Biz shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning tarkibiy asoslarini belgilab oldik:

- 1) kompetentlik tahlili;
- 2) kompetentlikga erishish traektoriyasi(yo'l) belgilanishi;
- 3) kompetentlikga erishish vositaradini tanlash;

4) axborotni izlash va qayta ishslash, tahlil qilish va umumlashtirish;

6) olingen natijalarni baholash va xulosa chiqarish.

Bu faoliyat o'quvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilganligini ta'kidlab, u ijodiy qobiliyatlarini, mantiqiy fikrlashni shakllantirishga va o'quv jarayonida olingen bilimlarni mustahkamlashga, muhim hayotiy masalalarning mohiyatini tushunishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning maqsadi turli ta'lim fanlarini o'rganishda talabalarning bilim, ko'nikma va murakkab ko'nikmalarini tushunish va ulardan foydalanish ekanligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ushbu faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

- rejalshtirishga o'rgatish (pedagog maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);

- ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish (o'qituvchi kerakli ma'lumotlarni tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak);

- analitik ko'nikmalarni takomillashtirish (ijodiy va tanqidiy fikrlash);

- yozma hisobot tuzish ko'nikmasini (ish rejasini tuzish, axborotlarni aniq taqdimot etish, izohlarni rasmiylashtirish, zaruriy adabiyotlar (bibiliografiya) haqida tushunchaga ega bo'lish) shakllantirish;

- ishga ijobiy munosabatni shakllantirish (BBTO' tashabbusi ko'rsatishi, ishni belgilangan reja va tartibi bo'yicha o'z vaqtida bajarishga harakat qilishi).

Prognozlash, rejalshtirish, tashkil etish va modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish darajasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish faoliyatini o'zlashtirishning yuqori darajasini belgilaydi.

Bu tushunchalarning va ularning mazmunini alohida qarab chiqamiz. Tadqiqotimiz obyekti shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan kasbiy kompetentlikni rivojlantirish faoliyati bo'lib, u

didaktik faoliyat bilan jips aloqada bo'ladi. Shu sababli biz o'quv jarayonida qo'llaniladigan modellarning turlaridan ham foydalandik.

O'quv jarayonida quyidagi turdag'i modellar qo'llanildi:

1. O'quv modellari - ta'lim jarayonida ko'rsatmali qurollar, ko'rgazmali vositalar, trenajyorlar, ta'limiy dasturlar qo'llaniladi.

2. Tajriba modellari - ilmiy, amaliy tajribalarni olib borishda joyhalashtirilayotgan obyektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nususini qo'llaniladi.

3. Ilmiy-texnik modellar - jarayon va hodisalarni tadqiq etishda qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar qo'llaniladi.

4. O'yin modellari - turli vaziyatlarda obyekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida kompyuter, sport, iqtisodiy, harbiy, ishchanlik o'yinlari qo'llaniladi.

5. Imitatsion modellar - real voqelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks etirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyor va mexanizmlar qo'llaniladi.

Kompetentlik - muayyan lavozim vazifalarini amalga oshirishda shaxsnинг o'ziga xos betakror va mohir sifatlaridagi namoyonidir. Biz BBTO professional kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirishi kerakligini aniqladik:

- KMYB haqida pedagogika va psixologiya fanidan bilimlarni egallash;

- o'z ustida ijodiy ishslash;

- o'quv jarayoni bo'yicha fikr-mulohazalarni rejalshtirish, baholash va tiklash qobiliyati;

- motivatsiyani shakllantirish;

- AKT bilimi;

- ta'lim muhitiga innovatsiyalarni joriy etish usullarini bilish; - IT doirasidagi fanlarni mukammal bilish;

- xorijiy tillardan birini o'rganish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda biz quyidagi masalalarga e'tibor qaratdik:

- o'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan umumiy talablar; maktab hujjalariiga qo'yiladigan talablar;

talabalarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish shakllari va usullari;

ta'limning texnik vositalaridan foydalanish qoidalari, xavfsizlik choralar, amaliyotda qo'llash imkoniyati bo'yicha yo'rqnoma;

didaktik, vizual va boshqa materiallardan foydalanish (buyurtma berish yoki olish) mexanizmi.

Kuzatishlar tahlili bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini quyidagi yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatdi:

pedagogik faoliyat asoslarini amaliy va nazariy jihatdan ishlab chiqish (darslarni tayyorlash, o'tkazish va tahlil qilish; o'qitish shakllari, usullari va usullari; darsni boshqarish asoslari);

shaxsiy malaka oshirish dasturini ishlab chiqish;

malaka oshirishning afzal uslubiy yo'nalishini tanlash;

asosiy ko'nikmalarini takomillashtirish;

innovatsion mahalliy pedagogik va ta'lim yo'nalishlarini o'zlashtirish;

tasdiqlash yoki ko'tarish uchun turli sertifikatlarga ega bo'lishi istagi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan pedagogik jarayonni didaktik ta'minlash ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, jumladan:

shaxsiy tajriba mazmunini ochishga yo'naltirish;

shaxsiy tajribani oshirishga xizmat qiladi;

belgilangan aniq topshiriqlarni bajarish, taqdim etishda sidqidildan xohish bilan yondashishi va tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirish ahamiyatli va qulay bo'lishi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'ziga xos xususiyatlarga egaligini aniqladik:

ta'lim usullarini mustaqil tanlash asosida ijodkorlik rivojlanishi;

baholash va nazoratning hamda bilish va o'rganish jarayonlarining uzziy bog'liqligi;

mustaqil ishlarning BBTO' shaxsiy hayoti, kasbi, imkoniyatlari bilan bog'liqligi.

"Rivoj" innovatsion maktabi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bilan hamkorlik tizimini yaratishda BBTO' kasbiy

rivojlanishning turli yo'nalishlarini (mutaxassislik, qo'shimcha mutaxassislik, ish o'rinalining o'sishi) hisobga olishi kerak.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bilan faoliyattdagi, darsdagi to'siqlar, muammolar va muvaffaqiyatsizliklar haqida dastlabki suhbat yaxshi natija beradi. Keyin BBTO'ning faoliyat saritasi belgilanadi. Yosh mutaxassislarga pedagogik faoliyat shaxslararo munosabatlarga asoslanishi, shu sababli konstruktiv karakterdagи doimiy muloqot, shaxslararo muloqot eng avvalo sabr va maqsadli bo'lishini taqozo etishini uqtirib borish kerak. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bilan ishslashda pedagogik ta'sirning eng samarali shakllaridan foydalanish kerak: ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishslash, vaziyatni tahlil qilish, o'zini o'zi anglash va boshqalar, biznes aloqalarini rivojlantirish, shaxsiy yetakchilik, qaror qabul qilish.

Inson ustozlik mahoratini samarali amalga oshirsagina muvaffaqiyatli murabbiya aylanadi. Oliy ta'lim muassasasi ta'limga norasmiy yondashuvga intilishi kerak: o'qish - ish; ishslash - ta'lim; BBTO'ning jamoatchilik faoliyatini tashkil etish, ularni xolisona tahlil qilish va introspeksiya o'rgatish. Yoshlar o'zlarini mutaxassis bolganda, ular bilan ishslashning bunday shakllaridan qo'rmaslik kerak: ular bir-birlarining darslarida qatnashadilar, tajriba va fikr almashadilar, qaytar aloqa o'rnatidalar.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining shaxsga yo'naltirilgan munosabatini shakllantirish va tarbiyalash jarayoni:

boshlang'ich maktabda ShYYni amalga oshirish kompetensiyasini rivojlantiridi;

talabaning o'z faoliyati subyekti sifatidagi mavqeini ta'mindaydi;

shaxs munosabatining amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

yosh talabalarni o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarini tanlash bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini ochib beradi;

talabalarni ta'limniing faol shakllari va usullaridan foydalanish, bilim, ko'nikma, harakat usullarini chuqur shaxsiy o'zlashtirishni ta'minlash, kelajakdagи kasbiy faoliyat uchun barqaror ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar orasida so'rov o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Maqsadga qarab o'qituvchi so'rovnomalarining ko'p turlari mavjud. Anketalardan birining natijalarini qayta ishlashga misol keltiraylik.

So'rovning maqsadlari:

metodik ishning ijobiy tomonlarini ochib berish va kelgosi yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muammolarni belgilab berish;

mehnat muvaffaqiyati ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida BBTO'ning o'z-o'zini tarbiyalash, ta'lim mazmunini yangilash borasidagi yutuqlarini kuzatish;

maktabning "O'quvchilarni kompetentsion yondashuvda o'qitish ta'lim jarayoni sifatini oshirish kafolati sifatida" yagona uslubiy mavzusini amalga oshirishda BBTO'ning ishtiroki darajasini aniqlash;

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari so'rovi natijalariga ko'ra, uslubiy ishning quyidagi yo'nalichlari eng muvaffaqiyatlidir:

- kompetentli ta'lim nazariyasi bilan tanishish;
- mavzu bo'yicha mavjud tajriba bilan almashish;
- metodik haftalar.

Biz o'z ishimizda quyidagi ishlarni amalga oshirdik:

- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ishlarini davom ettirish;
- bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini mualliflik metodikalari bilan tanishtirib borish;
- kasbiy kompetetsiyalarni egallash shaxsiy dasturini ishlab chiqish;
- uslubiy haftalardan ishning optimal shakli sifatida foydalanish;
- BBTO' shaxsiy ish rejasiga yangi va parallel dasturlar va darsliklar haqida ma'lumot berishni kiritish.

Tajriba-sinov jarayonida an'anaviy ish shakllariga (suhbatlar, maslahatlashuvlar, darslarga qatnashish va muhokama qilish) nisbatan yangi noan'anaviy, modernizatsiyalashtirilgan ish shakllari (psixologik treninglar, ijodiy laboratoriylar, psixologik pedagogik ish o'yinlari, bahslar, tanlovlari, davra suhbatlari, «aqliy hujum», dars modellarini ishlab chiqish va taqdim etish, o'zini ta'lim

rahbari sifatida ko'rsatish, ijodiy ishlarni himoya qilish, pedagogik tajribani «talabadan-talabaga» uzatish) samarali ekanligi ma'lum bo'ldi. Aynan ular BBT o'qituvchining ta'limiy faoliyatga, pedagogik muhitga kirish jarayonini tezlashtirdi. U o'zini yanada ishonchli his qildi, kasbni to'g'ri tanlashga ishonchi mustahkamlandi. Natijada, ularning kasbiy kompetentligi rivojlandi.

Pedagogik g'oyalari auksionini o'tkazish, amaliy tajriba kamligi tufayli faqat nazariy materiallarni taqdim etuvchi murabbiy sifatidagi bunday noan'anaviy ish shakli o'zini ijobiy isbotladi. Bunday muloqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilar o'z ishlarida qo'llamoqchi bo'lgan barcha qiziqarli narsalarni qayd etadilar, ammo ularda hali javob berilmagan savollar mavjud. Bu yerda tajribali o'qituvchilar, murabbiylar va bir-biriga yordam beradigan yosh o'qituvchilarni birlashtirish mumkin.

Bo'lajak mutaxassislarga turli "eslatmalar" tayyorlanishi, ishimizning samarasini belgilab berdi:

- ta'lim rahbarining vazifalari;
- o'zlashtirmagan o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etish;
- darsni tahlil qilish va introspeksiya qilish;
- ota-onalar bilan ishlashni qanday tashkil qilish kerak;
- ota-onalar yig'ilishini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar;
- ta'limdan tashqari tadbirlar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi 8ta anqlashtirilgan kompetensiyalar asosida o'z kasbiy kompetentlik portfoliosini yaratishi mumkin, unda pedagogik xulosalar, yutuqlar, darslar bo'yicha fikr-mulohazalar, anketalar va boshqalar kiradi. Bu bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi dinamikasini ko'rish imkonini beradi. Portfolio - bu o'qituvchining kasbiy darajasini oshirish, uning qobiliyatlari, o'zini o'zi tashkil qilish, muloqot qilish qobiliyatini ko'rsatadigan va amaliy o'zini o'zi anglash ehtiyojlarini qondirish uchun o'ziga xos pasport. Bundan tashqari, portfoliodan sertifikatlash uchun yosh mutaxassisning to'liq va ko'p qirrali taqdimoti shakli sifatida ham foydalanish mumkin. Bunday hujjatni yaratish rasmiyatchilikdan qochish, BBT o'qituvchisi bilan ishlash shakllari va usullarini tanlashga maqsadli va muntazam yondashish, kasbiy o'sish natijalarini va uning faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlarni

to'g'ri baholash imkonini beradi. Portfolio BBT o'qituvchisining o'zi tomonidan yuritiladi va uning kasbiy mahorati va shaxsiy kasbiy rivojlanishidagi yutuqlari qayd etiladi.

Talabalarning asosiy kompetensiyalarini baholash tizimini izchil amalga oshirish uchun biz quyidagi algoritmni amalga oshirishni taklif qilamiz:

1. Manfaatdorlarning (davlat, jamiyat, ota-onalar, talabalar va o'qituvchilar) ijtimoiy buyurtmasini o'rganish asosida ta'limga bitiruvchisining kompetentli modelini ishlab chiqish. Bitiruvchining kompetentlik modeli matabning o'quv jarayonini loyihalashning natijaga yo'naltirilgan asosidir. Bitiruvchining kompetentligi modeli ostida biz bitiruvchining mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan ma'lum bir imidj, standart, idealni tushunamiz. Kompetentlikga asoslangan model ta'limga jarayonining tuzilishini aks ettiruvchi va olingan natijalarni adekvat nazorat qilish va baholashni ta'minlaydigan axborot tizimi sifatida ishlaydi. Muayyan ta'limga bosqichi bitiruvchisining kompetentlik modeli ideal maqsad bo'lib, ideal maqsad haqiqatga aylanishi uchun o'quv fanlari bo'yicha bitiruvchilarga qo'yiladigan talablarni aniqlab olish kerak. Buning uchun fanlar bo'yicha kompetentlik matritsasi ishlab chiqildi.

2. Fanlararo kompetensiyalarning bog'liqligi matritsasini ishlab chiqish. Talabalarning kasbiy tayyorgarligi OTM rejasida ko'rsatilgan barcha fanlarni o'rganish jarayonida amalga oshiriladi va ularning har biri muayyan kasbiy fazilatlar va ko'nikmalar shakllantirishga yo'naltiriladi. Kompetentlik matritsasi talabanining asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishda har bir fanning ahamiyatini ko'rish imkonini beradi.

3. Asosiy kompetensiyalarning xarakteristikalari (shakllangan kompetensiyalar mazmuni asoslarini aniqlash). Asosiy kompetensiyalarni shakllantirish va baholashda o'qituvchining ishini yengillashtirish uchun biz kasbiy kompetensiyani rivojlantirish shakllari, usullari, texnikasi, texnologiyalarini belgilaydigan "Talabalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish va baholash jihatlari o'rtaсидagi bog'liqlik" jadvalini ishlab chiqishni taklif qilamiz.

4. Talabalarning asosiy kompetensiyalarini baholash ko'rsatkich (mezon, indikator, deskriptor)lar tizimini ishlab chiqish.


5. Talabalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun baholash vositalari fondini yaratish. Asosiy vakolatlarning har birini baholash uchun vazifalar ishlab chiqiladi, ularning natijasi ularning shakllanish darajasini baholash uchun ishlatalishi mumkin.

6. O'lchov natijalarini an'anaviy baholash shkalasiga o'tkazish tartibini ishlab chiqish.

7. Baholash tartibi va qoidalarni ishlab chiqish. Baholashda talabaning muayyan turdag'i ishlarni bajarishi, fanni o'rganishdagi muvaffaqiyat darajasi qayd etilishi kerak.

8. Keyingi bosqich - ta'limga mazmuni birliklarini shakllantirilayotgan kompetensiyalar bilan bog'lash ("maqsad - faoliyat - kompetentlik" formulasiga asoslangan yondashuv asosida darsni texnologiyalashtirish).

9. Talabalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish monitoringini yaratish. Monitoring jarayonida muayyan kompetensiyaning shakllanish darajasini aniqlashi mumkin (2.2.11 - rasm):



#### **2.2.11 - rasm. BBTO' kompetensiyasining monitoring algoritmi**

O'z-o'zini takomillashtirish texnologiyasining konseptual tamoyillarini, uning asosiy qoidalari mazmu-mohiyatini o'zlashtirgan boshlang'ich ta'limga o'qituvchisi amaliy faoliyatga ijodiy yondashishning asosi bo'lgan kompetensiyalardan foydalanish asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishi mumkin.

O'zgaruvchan ta'limga muhitida talabani tezkor qarirlarni qabul qilishga odatlantirishimiz, saralangan eng maqbul zamонавиј

pedagogik va axborot texnologiyalarni, ilg'or pedagogik tajribalarni, usullarni qo'llashiga, kasbiy-pedagogik ijodkorligini namoyon etishiga maydon yaratishimiz darkor. Ushbu maydon vazifasini PTIK bajaradi deb o'ylaymiz. Biz tajriba-sinovimizda ushu ishlab chiqilgan modelga tayandik (2.2.8-jadval).

### **§ 2.3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ishlari samaradorligi**

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda biz bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining motivlari, talablari va qiziqishlari, qadriyatları va ideallarini o'rganish orqali yetuk kadrlarni tarbiyalash va tayyorlashning yakuniy maqsadini belgilab oldik.

Pedagogik tajriba-sinov ishida bo'lajak o'qituvchilarning kichik maktab yoshidagi bolaning xususiyatlari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi obrazini yaratish; boshlang'ich sinflarda ta'limga oid uslubiy ko'nikmalarni mustahkamlash va ularning malakasini oshirish; bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish maqsadlarida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

pedagogik tajriba-sinov maydonchalarini belgilash;

pedagogik tajriba-sinov ishining rejasi va dasturini ishlab chiqish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishning huquqiy asoslarini shakllantirish;

bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarga aniqlik kiritish;

kasbiy kompetentlikni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;

ilg'or xorijiy tajribalarni moslashtirib, pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish;

tajriba guruhlari talabalariga "Rivoj" loyihasining mazmuni mohiyatini va unga muvofiq faoliyat algoritmini tushuntirish;

tajriba-sinov ishlarini belgilangan reja asosida tashkil qilish; eksperimental ishlarning borishini kuzatish va zarur tuzatish ishlarini olib borish;

pedagogik eksperimental ish natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida BBTO' kasbiy kompetentligini rivojlantirishda biz tomongan ishlab chiqilgan "Rivoj"<sup>[113]</sup> loyiha dasturi qo'l keladi deb hisoblaymiz. Ushbu innovatsion klaster loyiha texnologiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

ish beruvchilar hamkorligida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassisning asosiy vazifalar ro'yxati belgilab olinadi va kasbiy standart ramkasi tuziladi;

belgilangan vazifalar amalga oshiruvchi kasbiy kompetensiyalar aniqlanadi va matritsasi ishlab chiqiladi;

kompetensiya mazmunini ochib beruvchi indikatorlar to'plami belgilanadi;

o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash deskriptorlari ishlab chiqiladi;

kasbiy kompetensiyalarning rivojlanish darajasini aniqlovchi mezonlar setkasi ishlab chiqiladi;

ta'lim maqsadlari, mazmuni, o'zlashtirish usullari va o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash yo'llarini o'z ichiga olgan diagnostika zanjiri ishlab chiqiladi;

shaxsiy kompetentlik kundaligida erishilgan kompetensiyalar elementlari muntazam kiritiladi.

Pedagogik tajribalarda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quv jarayonining salmog'i va sifatini oshirish uchun quyidagi omillarni hisobga oldik:

1. Psixologik-fiziologik omillar: jismoniy (dinamik va statik), ruhiy (aniqlik), hissiy (ta'sir) va aqliy (axborotlar hajmi) barqarorlik.

2. Sanitariya-gigiyenik omillar: ish joyidagi mikroiqlim - (harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi), havoning tozaligi (bug', gaz, aerozollarning mavjudligi), yoritilganligi, shovqin, vibratsiya, ulstratovush, biologik va boshqa ta'sirlar.

3. Estetik omillar: shaxs tomonidan atrof-muhitni estetik qabul qilinishini ta'minlovchi omillar - ranglar, shakllar, musiqiy ohanglar, ish o'rning jihozlanishi, mehnat qurollari(vositalari)ning chiroyli ko'rinishi, ish kiyimlarining ko'rimaligi, binolarning badiiy-me'moriy yechimi; bularning barchasi bo'lajak o'qituvchining kayfiyatiga va o'z

navbatida ishchanlik qobiliyatining oshishiga, mehnat samaradorligining yaxshilanishiga ta'sir etadi).

4. Ijtimoiy-psixologik omillar: professor-ustozlar jamoasi tarkibi, talabalarning qiziqishlari, dekanatning boshqaruvi uslubi integratsiyasi ta'sirida muassasada axloqiy-psixologik iqlim yuzaga kelib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining jismoni, ruhiy va hissiy barqarorligini, jamoa bilan jipsligini, mehnat faolligini va ijodiy tashabbuskorligini ta'minlaydi.

Bo'lajak mutaxassisning kompetentligini rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkin. Biz tajriba-sinov o'tkazishda quyidagi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalandik:

- ishbilarmonlik o'yinlari;
- muammoli o'qitish;
- tabaqalashtirilgan o'qitish;
- dasturlashtirilgan o'qitish;
- kompyuterlashtirilgan o'qitish;
- modulli o'qitish.

Biz "Rivoj" loyihasining tuzilishi va mazmunini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadi bilan bog'ladik. Natijada bo'lajak mutaxassis uchun quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

kompetensiyalar mazmunini muntazam ravishda o'rgatish; mustaqil ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich kengaytirish; shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyalari asosida faoliyat xaritasini ishlab chiqish;

boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi lavozimiga oid vazifa va majburiyatlarni tahlil qilish;

pedagogik faoliyatning mualliflik sohalarini o'rganish; kasbiy va shaxsiy manfaatlarning muvofiqligini ta'minlash.

"Rivoj" dasturi orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kompetensiya va kompetentlik atamalarining tarixi, rivojlanishi va istiqbollari, kompetentli mutaxassis qiyofasini o'rgandi, sifatlar va qadriyatlar asosida jamiyatda o'z o'rnnini aniqladi, kompetentlikka yetaklovchi harakatlar mazmunini (bilimlarni amaliy va tezkor ravishda muayyan vaziyatlarda qo'llay olish) tahlil qildi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirilish ishlarini "Rivoj" loyihasi orqali uch bosqichda amalga oshirdiki

1-bosqich - moslashuv. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi moslashuv dasturini ishlab chiqish uchun o'z vazifalari va vakolatlari doirasini belgilaydi, shuningdek, uning malakasi va qobiliyatidagi hamchiliklarni ochib beradi.

2-bosqich - takomillashuv. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi moslashuv dasturini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, o'z kasbiy kompetentligini takomillashtirish dasturini yaratadi va unga muvofiq vazifalarni bajaradi.

3-bosqich - diagnostika. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'z kasbiy kompetentlik darajasini tekshiradi, o'zining funksional vazifalarini bajarishga tayyorlik darajasini belgilaydi(3.1.9 - jadval).

### 3.1.9-jadval

moslashuv	takomillashuv	diagnostika
<ul style="list-style-type: none"> <li>• esse</li> <li>• aukcion</li> <li>• kasbiy standartlar ramkasi</li> <li>• vakolatlar doirasni</li> <li>• kasbnoma</li> <li>• muammolarni aniqlash</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mezonlar dasturi</li> <li>• shaxsiy kasbiy kompetentlikni rivojlantirish kundaligi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kompetensiya matritsasi</li> <li>• diagnostika zanjiri</li> <li>• korreksion ishlari</li> </ul>

Eksperimentning "moslashuv" bosqichida biz bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy rivojlanishi nafaqat muayyan muammolarni hal qilish qobiliyatiga, balki ularni izlash va hal qilish uchun motivatsion tayyorgarlikning mavjudligiga bog'liq degan xulosaga keldik. Kasbiy faoliyat uchun motivatsiya shaxsni o'ziga ochishga yordam beradi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallashi, ba'zi qobiliyatlarini namoyon qilishi va shu bilan birga o'z kasbiy faoliyatiga befarq bo'lishi mumkin, bu esa o'z kasbiy darajasini

oshirishga past darajada moyillik bilan ifodalanadi. "Moslashirish"ning birinchi bosqichida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari bilan tajriba-sinov ishlarni olib borish maqsadida "tezkor pedagogik donorlik"ni tashkil etdik.

Tezkor pedagogik donorlik:

- kompetensiya mezonlari va mazmunini aniqlash;
- aniqlangan natijalar asosida uslubiy ishlarni rejalashtirish va texnologiyasini qurish;
- uslubiy ish samaradorligini baholash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tajriba-sinov ishi yo'nalishlari mazmunini aniqlash maqsadida biz bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentlik bo'yicha bilimlarini aniqladik. Tajribaning birinchi bosqichida asosiy ish uslubi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisidan dastlabki so'rovnomalar, esse, suhbatlar olish tariqasida o'tkazildi.

Dastlab biz boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi qanday bo'lishi kerakligini aniqlashdan boshladik. Nazorat guruhi va Tajriba guruhi talabalariga "Aqliy hujum" metodidan foydalaniib, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sifatlarini sanashlarini aytdik. Sanab o'tilganlardan 10ta zarur(ushbu sifatlarsiz boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi identifikatsiyalanmaydi) tanlab olingen sifatlar asosida "TIM" (tushunchalardan ixcham matn) interfaol metodidan foydalaniib kichik hajmli(5-6 gap) esse yozishlarini taklif etdik. Tahlilga ko'ra eng yuqori pog'onalarini egallagan 10ta sifatni ajratib oldik. "Esse" tahlili talabalarning quyidagi sifatlarni tanlaganliklarini ko'rsatdi (3.1.10-jadval):

### 3.1.10-jadval

#### Esse tahlili

Sifatlar	ball	CHDPU	ADU	JDPU	jami
Bolajonlik(gumanizm)	45	46	53	144	
Mas'uliyat	45	34	28	107	
Xushfe'llik	56	54	57	167	
Mehnatsevarlik	34	39	49	122	
Faollik	43	46	38	127	

Bilimdonlik	59	57	58	174
Maqsad qo'yish	59	58	59	176
Adolat	35	42	51	128
Intizom	48	27	34	109
Kirishimlilik	47	44	53	144

Esse tahlilidan so'ng "AUKSION" metodidan foydalandik. Bunda har bir tanlanib olingen sifatni 1-5 ball oralig'ida baholab chiqdik. Baholash 10 ball ichida amalga oshirilishi, 1dan 5 gacha bo'lgan har bir baho albatta qatnashish talabini auktsion shartiga kiritedik. Har bir talaba berilgan sifatlarning qiymatini shaxsan o'zi baholadi va 10 ball ichida eng zaruriylarini tanlab oldi. "Zaruriylik" tushunchasiga ham bu yerda aniqlik kiritib o'tdik, ya'ni ushbu sifat bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisida mavjud bo'lмаган yoki ўst shakllangan sifatni tanlab olishi zarurligini tushuntirdik. Ko'rinish turibdiki, talaba faqatgina 5ta sifatni baholay oladi va uardan ko'pi bilan 4ta sifatni tanlay oladi.

Ushbu jadvalga tayanib har bir bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ishlashi lozim bo'lgan o'z sifatlarini aniqlab olishiga erishdik. Mazkur sifatlarni rivojlantirish uchun kasbiy kompetentlik kundaligiga tayanib, ish rejasini ishlab chiqish va biz tomondan ishlab chiqilgan "Kasbiy kompetentlik komponentlarining mezonlarda namoyon bo'lishi" jadvalidan (3.1.11-jadval) foydalinish tavsiyasi berildi:

### 3.1.11-jadval

#### Kasbiy kompetentlik komponentlarining mezonlarda namoyon bo'lishi

KOMPONENTLAR	Kompetensiyalar	Mezonlar	ball				
			1	2	3	4	5
PREDMETLI	Kalligrafik Tabiiy Matematik Badiiy Estetik						
DIDAKTIK	Metodlar						

	Pedagogik texnologiyalar An`anaviy ta'lif Noan`anaviy ta'lif To'ldiruvchi ta'lif			
KOMMUNIKATIV	Muloqot Hamkolilik Tolerantlik Konfliktologiya Emotsional intellekt			
MENEJERLIK	Yetakchilik Tashabbus Tashkilotchilik Tadbirkorlik Madaniyat			
DIAGNOSTIK	Nazorat Taftish Tahlil Prognostik Testologiya			
TEXNOLOGIK	Texnik AKT Raqamli vositalar Darsliklar Dasturlar			
KREATIV	Moslashuvchanlik Mobillik Originallik Innovatorlik Mualliflik			
REFLEKSIV	Qaytar aloqa Xulosa Korreksiya Xotira zanjiri Kompetentlik kundaligi			

Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining kompetensiya haqidagi dastlabki bilish pog'onalarini so'rovnomada aniqlandi. Tajriba jarayonida ma'lum bo'ldiki, respondentlarning aktsariyati "kompetentlik", "vakolat", "kasbiy kompetensiya" tushunchalariga aniq ta'rif bera olmagan yoki ularni boshqa tushunchalar bilan almashтирib, noto'g'ri ta'riflar bergan. Ushbu kategoriyalar ta'rifiiga aniqlik kiritib olishlari uchun BBTO'lari bilan "Biblioterapiya" (ilova 4) metodidan foydalandik. Natijada tajriba guruhidagi ko'satkichlar quyidagicha o'sdi (3.1.12 - jadval):

### 3.1.12-jadval

#### So'rovnomalar

Savol	Tajribadan avval	Tajribadan so'ng
Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining kompetensiyalarini ayting	56%	78%
Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining faoliyat yususiyatlarini ayting	52%	83%
Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi nimalarni bilishi kerak	64%	87%

Tajriba-sinovning «takomillashuv» bosqichida faoliyat maqsadiga ko'ra ish turli uslubiy shakllarda olib borildi:  
 muvofiqlashtiruvchi va uslubiy konsultatsiya;  
 mini-loyiha ishi;  
 tezkor "pedagogik donorlik" uchrashuvlari;  
 pedagogik g'oyalari yarmarkasi;  
 tezislardan konferensiysi;  
 "Ilk pedagogik qadam", "Bo'lajak profi" ijodiy pedagogik tanlovlari;  
 ilg'or pedagogik va mualliflik tajribalarni umumlashtirish;  
 individual dasturlar;  
 oraliq va yakuniy nazorat shakllari.

Bundan tashqari, "Rivoj" innovatsion maktabi uchun turli loyiha dasturlari, rejalar, innovatsion interfaol metod va texnologiyalar ishlab chiqildi va kasbiy kompetentlikni rivollantirish uchun foydalanildi (1-3 ilova).

Tajriba davrida ta'lrim jarayonida tez-tez uchraydigan xatolarning oldini olish, barqaror fundamental pozitsiyalarni ishlab chiqish, bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchilarining o'qituvchilik faoliyatidagi og'riqli nuqtalarni aniqlash maqsadida hamkorlik dasturini tayyorladik:

bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchisining aniqlangan potentsial imkoniyatlaridan kelib chiqib, uslubiy ishlarni tabaqalashtirilgan va maqsadli rejalaشتirish;

bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchisining kasbiy saviyasini uning ehtiyojlari, qiyinchiliklari, yutuqlarini hisobga olgan holda oshirish;

bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchisining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, uning innovatsion faoliyatdagi ishtirokinini rag'batlantirish, kasbiy faoliyat rivojlanish dinamikasini kuzatish;

bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchisining amaliyot unumдорлиги va ta'lrim muassasasida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish;

bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchilarining o'zini tarbiyalash ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratish [107; 307 - b.].

Ushbu dasturni amalga oishirishda turli usullardan foydalandik:

axborot usullari - ma`ruza, seminar, pedagogik o'qishlar;

ijodiy muammolarni hal qilish usullari - muammoli, inversiya, moslashuvchan, o'ziga xos fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shish; individual va jamoaviy ish.

Tajribaning "diagnostika" bosqichida dastlabki darajalar mezoniga murojaat qildik:

ongsiz kompetentsizlik - bilmayman, qanday bajarishni bilmayman;

ongli kompetentsizlik - bilaman, lekin bajara olmayman;

ongli kompetentlik - men qanday bajarishni bilaman va o'rganaman;

ongsiz kompetentlik - men o'rgandim va bemalol bajaraman.

Diagnostika bosqichida bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchilarining rag'batlantirilishini faollashtirish va kuchaytirish, ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan samarali shakl va usullar tanlab olindi:

muammoli pedagogik o'yini;

refleksiya o'yini;

ijodiy guruhda ishslash;

ma`ruza, seminar, amaliy dars;

pedagogik o'qishlar;

pedagogik ring;

pedagogik g'oyalar yarmarkasi;

videodarslarni hissiy jihatdan tahlil qilish;

guruhdan -shaxsga va shaxsdan- guruhga axboroy uzatish; tayanch maktablarga tashrif buyurish va jarayonini tahlil qilish;

mahorat darslari;

pedagogik ustaxonalar.

Kompetensiyalarni rivvojlantirish uchun biz pedagogik seminarlar, mahorat darslari, ijodiy guruhlarda ishslash, «Tayanch maktab» bilan hamkorlikda ilg'or pedagogik va mualliflik tajribasini o'rganish, professional muhokamalarda qatnashish, didaktik materiallar tayyorlash, ijodiy darslar berish kabi usul va texnologiyalardan foydalandik, kasbiy muammolarni guruhda muhokama qilish, kursdosh-talabalardan real yordam olish muhitini yaratdik.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchisining takomillashtirish ehtiyojlarini rag'batlantirilishi kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi anglashiga yordam beradi. Rag'bat tizimining samaradorligini har tomonlama ko'rib chiqish bo'lajak boshlang'ich ta'lrim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolarini tez va samarali hal etish, ularni rivojlantirish loyihasiga kiritish o'z-o'zini tashkil etishda ko'maklashish imkonini beradi, rivojlanish tahlili kasbiy malakasini oshirishiga hizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida biz quyidagi darajalarini ishlab chiqdik va tajriba-sinov ishlarida foydalandik:

1. Standart (elementar) daraja – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi mavjud modellar asosida Oliy ta'lim standarti asosida "Kasbiy kompetensiyalar doirasida" OTM tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyalarga ega.

2. Algoritmik daraja – "Kasbiy kompetentlik ramkasi"da belgilab qo'yilgan kompetensiyalarni egallash algoritmiga mustaqil ravishda amal qildi.

3. Evristik daraja – "Kasbiy kompetentlik ramkasi"da belgilab qo'yilgan kompetensiyalarga o'rinni o'zgarishlar kiritish asosida yangi algoritmlar tuzish, o'quv muammosini hal etish uchun yangi axborotlarni mustaqil tarzda izlab topish malakasini aniqlaydi.

4. Mualliflik darajasi – topshiriqlarni bajarish jarayonida shaxsiy ishlab chiqilgan yechimlar bilan boyitish(3.1.13-jadval) [106] 480-b.]:

### 3.1.13-jadval

#### Kasbiy kompetentlik darajalari

Rivoj loyihasi	daraja	bosqich	natija
	Standart	etalonga mos talab - me'yor	OTM standarti doirasida faoliyat ko'rsatuvchi BBTO'
	Algoritmik	shaxsiy indikator ko'rsatma - reja	"Kasbiy kompetentlik ramkasi"da belgilab qo'yilgan kompetensiyalar algoritmi
	Evristik	shaxsiy deskriptor dastur-innovatorlik	"Kompetensiya matritsasi"da belgilab qo'yilgan kompetensiyalarga o'zgarishlar kiritish
	Mualliflik	yangi mezonlar loyiha - novatorlik	shaxsiy ishlab chiqilgan yechimlar

Biz talabalarga har bir sektorni besh va undan ortiq o'zlariga tanish yoki mavjud bo'lgan aniq mezonlar bilan belgilab olishlarini maslahat berdik. Bu yerda bir nechta maqsadlarga erishildi. Dastlabki shovlarda ushbu vazifa orqali biz talabalarning bilim doiralarini aniqlab olgan bo'lsak, keyingi bosqichlarda ishlash doirasini aniqlab olishlari uchun qo'lladik.

Talabalar uchun tashkil etilgan seminarlarda har bir sektorni belgilab olish va belgilanib olingan mezonlarni rivojlantirish uchun taysiyalar berib bordik. Masalan, **DIDAKTIK KOMPETENSIYA** sektoridagi AN'ANAVIY TA'LIM mezonini quyidagi ko'nikmalar orqali belgilab oldik:

- Dars tuzilishi
  - Dars maqsadlari
  - Dars vazifalari
  - Dars tiplari
  - Dars vositalari
  - Dars shakllari
  - Dars talablari
  - Dars tahlili
  - Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi hujjatlar.
- Misol tariqasida kasbiy kompetentlikka oid "dars tahlili" elementini bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tomonidan turli darajalarda egallanish holatini ko'rib chiqsak (3.1.14-jadval)

### 3.1.14-jadval

#### Kasbiy kompetentlik darajalarining indicator va deskriptorlarda namoyon bo'lishi


Indicator	Dars tahlil	
	Standart daraja	
Deskriptorlar	Talab	Me'yor
	Dars tahlil maqsadi va turlarini biladi	Tahlil qilishi kerak bo'lgan ko'rsatkichlarini ajratadi
	<b>Algoritmik daraja</b>	
	Ko'rsatma	Reja

O'quvchilar xususiyatlarini xisobga olgan xolda o'quv faoliyatga baho beradi	Dars taxlilini mustaqil tarzda ketma-ketligini tuzadi
<b>Evristi daraja</b>	
Dastur	Innovatorlik
o'quvchilar tomonidan ta'limda bajariladigan o'quv vazifalar tizimini psixologik-pedagogik baholash	
<b>Mualliflik darajasi</b>	
Loyiha	Novatorlik
Darsning real va rejalshtirilgan natijarni qiyoslash	Yangilik kiritadi, m/n dars tahlil sayti

Ushbu mezonlarni to'liq bilgan talabalar dastlabki sinovlarda faqat kategoriya sifatida bilishlarini, lekin suhbatlar davomida ushbu bilish yuzasi xarakterda ekanligini aniqlab oldik. Ta'lim maqsadlari, mazmuni, o'zlashtirish usullari va o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash yo'llarini o'z ichiga olgan diagnostika zanjiri ishlab chiqdik (3.1.12 – rasm).

Ushbu bilimlarni to'liq bo'lishi uchun biz kichik guruhlarda yetakchi talabalar orqali har bir mezonni to'liq ochib berish ishi, ya'ni "pedagogik donorlik"ni tashkil etdik. Kompetentlik darajalarini baholash indikatorlari:

- 1 ball - sifat deyarli ko'rsatilmaydi
- 2 ball - sifat har doim ham ko'rsatilmaydi
- 3 ball - malaka darajasi standart vazifalarni bajarishga imkon beradi
- 4 ball - bu sifatni nostandard sharoitlarda ko'rsatadi
- 5 ball - sifat tanqidiy sharoitlarda ko'rsatiladi, uning tajribasi boshqalarga o'rgatish uchun ishlatalishi mumkin.



### 3.1.12-rasm. Diagnostika zanjiri

O'qituvchining kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi qismalarini aniqlashtirib oldik. Endi ularni rivojlantirish uchun talaba bilan qanday ish olib borishimiz darkor? Ushbu jarayonni quyidagi bosqichlarga bo'lib oldik:

- Amaliyotoldi bosqich
- Amaliy bosqich
- Amaliyotdan keyingi bosqich

Ishni amaliyotoldi tayyorgarlik ishlaridan boshladik.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi pedagogik ish olib borar ekan, uning ta'sir qilish ob'ektini, ya'ni boshlang'ich maktab yoshini o'rjanishi kerak. Ta'sir obyektni kanchalik chuqur o'rgansa, shunchalik pedagogik faoliyati muvvafaqiyatlari kechadi. Rivoj loyihasi kesimida talabalardan bilish testi olindi. Ushbu testda kichik maktab yoshidagi bolalarni bilamizmi degan ochiq test savollariga javob olishga harakat qildik.

1. Kichik maktab yoshidagi bolalik davrini aniqlang. (6-11)
2. Kichik maktab yoshidagi bolalik davrida intensiv asabiy rivojlanish qanday xolat bilan birga kuzatiladi? (tez charshash)
3. Kichik maktab yoshidagi bolalik davrida qanday salbiy ta'sirlar jismoniy zo'riqishga olib keladi?(ko'p yozuv, davomli bir xil faoliyat)

4. Kichik maktab yoshidagi bolalik davrida qanday psixik o'zgarishlar yuz beradi?(bilish sohasi o'zgaradi, shaxs shakllanadi, kattalar bilan muloqot o'zgaradi)

5. Kichik maktab yoshidagi bolalik davrida qaysi faoliyat yetakchi xisoblanadi? (ta'lim)


Dastlabki natijalarни yaxshilash maqsadida talabalar tajriba davomida biz tuzib chikgan «Gulfoj» dasturi asosida ish olib borishdi(3.1.15 - jadval):

**3.1.15-jadval**

«Gulfoj» dasturi				
	faoliyat	natija	tavsiya	
Kichik maktab yoshidagi bola xususiyatlari ni o'rganish	Har bir talaba mualliflik metodikasi ni batafsil o'rganadi	Klaster tuzadi Bir-biri bilan o'rtoqlasha di Skarabey	Davletshin nazariyasi Rodjers nazariyasi Slastyonin nazariyasi	
Kichik maktob yoshidagi bola psixik xususiyatlari ni aniklovchi testlar bilan ishlamauga urgatish	Har bir talaba alohida test bilan ishlaydi	Test tahlili Bir-biri bilan o'rtoqlasha di Skarabey	Diagnostik test Proektion test Intellektual test	
Bola bilan ishlashda mualliflik metodikalari bilan tanishuv	Har bir talaba alohida muallif metodikani o'rganadi	Bir-biri bilan o'rtoqlasha di Skarabey	"JIF" "Siyohrang o'rmon" "Kapustin metodikasi"	

Ushbu savollarga tajriba guruhidagi respondentlar javoblari tajribadan avval va keyingi holatini diagrammada ko'rsatamiz (3.1.13 - rasm):

Kichik maktab yoshidagi bola xususiyatlari



**Rasm 3.1.13**

Quyidagi vazifalarning bajarilishi tadqiqotni ilmiy nuqtai nazardan tashkil etish imkonini berdi:

vaqtning maksimal darajada tejash va undan samarali foydalanish;

qulay mehnat va dam olish sharoitini yaratish, undan oqilona foydalanish;

faoliyat jarayonida o'z salomatligi, har tomonlama rivojlanishi to'g'risida qayg'urish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratildi:

1. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish (vaqtning tejash, kam kuch va mehnat sarflanishini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xizmat qiladigan axborotlar sifatini oshiradi).

2. Qulay ish o'rni ni yaratish (zamonaviy texnik va texnologik jihatlar, qulay ish vaqt, samarali metod, usul va vositalar, o'qituvchining ishchanlik qobiliyatini uzoq vaqt saqlashga xizmat qiladigan mehnat sharoitidan iborat).

3. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ning samarali shakl, metod, usul va vositalarini tanlash.

4. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ning sur'atini oshirish.

5. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va dam olishining samaradorligini ta'minlash, (o'qituvchi mehnati) samaradorligini

oshirish, salomatligini saqlashga xizmat qiladigan oqilona rejimi bergilash).

6. Ish o'rnini shovqindan himoyalash.

7. Aqliy va jismoniy mehnatning o'zaro almashishini ta'minlash.

8. Jismoniy va ruhiy zo'riqishni kamaytirish, tushkunlikka tushishning oldini olishga erishish.

9. Pedagogik faoliyatni mazmunan boyitish yo'li bilan monotonlikning oldini olish va bartaraf etish.

10. Pedagogik faoliyat sur'atining kun davomida bir xil sur'atda bo'lishini ta'minlash.

Shuningdek, tajriba davomida biz talabalarga fanlarga oid kompetensiyalarning rivojlantirishini kuzatish uchun "Shaxsiy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish kundaligi"ni yuritishni tavsiya etdik. Ushbu kundalik auditoriya mashg'ulotlarida olingan bilim, ko'nikma, malakalarga asoslanadi va quyidagi ko'rinishga ega(3.1.16-jadval):

**3.1.16-jadval**

#### **Shaxsiy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish kundaligi**

sana	Dars jadvali	bildi m	o'rgandi m	kompetensi ya	istiqbol	meto d
02.09	TIM	tarbiya	Klaster tuzish	madaniy	Tarbiya ga oid 3ta fikrni yodlash	suhbat
02.09	Matematika	Oddiy masala	Echish yo'llari	predmetli	Mantiqi y masalaga 2ta misol	mashq

Shaxsiy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish kundaligida BBTO' o'z ustida ishlash bosqichlarini va amalga oshiriladigan vazifalarini qayd etib bordi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarining samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish vazifalarining

imkonini berdi. Ma'lum bosqich vazifalari hal etilgach, bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi bu holatni alohida bandda qayd etadi (jadval 3.1.17):

**jadval 3.1.17**

#### **Kasbiy kompetentlik darajalarining indikator va deskriptorlarda namoyon bo'lishi**

Didaktik kompetensiya	An'anaviy ta'lif	
	Indikator	Deskriptor
<b>Dars tahlili</b>	<b>Standart daraja</b>	Dars tahlili maqsadlarini maqsadlari aniqlaydi
	<b>Algoritmik daraja</b>	O'quvchilar xususiyatlarini xisobga olgan xolda o'quv faoliyatga baho beradi
<b>Evristik daraja</b>		O'quvchilarning faollashuvini(sustlashuvini) belgilovchi unsurlarni aniqlaydi
	<b>Mualliflik daraja</b>	O'quvchilar tomonidan ta'lifda bajariladigan o'quv vazifalar tizimini psixologik-pedagogik baholash
		Darsning real va rejalashtirilgan natijarni qiyoslash
		Darsning real natijari asosida dars tahlili maqsadlarining yangi tasnifini ishlab chiqadi

Biz kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlarini ishlab chiqdik va tajribada qo'lladik:

- o'z kompetensiyalarini tahlil qilish va zarurlarini anglash;
- kompetensiyaning mezonlarini belgilash;

- kompetentlikni namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish. Kompetensiyalar takomillashuvi quyidagilarda ko'rindi:
  - kasbiy kompetensiyalar diagnostikasi;
  - kompetensiyalar matritsasi bilan ishlash;
  - kasbiy ijodiy hamkorlikni tuzish.
- Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining o'z ustida ishlashini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:
- aniq maqsadni belgilaydi;
  - pedagogik jarayonni mualliflik yondashuv asosida takomillashtiradi;
  - pedagogik jarayon samaradorligini ishchanlik faolligi orqali oshiradi;
  - izchil ravishda kompetensiyalar mazmunini yangilab boradi;
  - ta'lim jarayonida ilg'or texnologiya, interfaol metod hamda vositalarni qo'llaydi;
  - fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etadi;
  - kasbiy kompetensiyalarini takomillashtiradi;
  - pedagogik diplomatiya mezonlarini o'rganadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining o'z ustida izchil, samarali ishlashida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv qo'l keldi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida kompetensiyalarning rivojlanganligini baholash uchun ma'lum ko'rsatkich (indikator va deskriptor)lar ishlab chiqildi. Masalan, biz quyidagi model asosida "Predmetli kompetensiya"ga oid husnixat mezonini ko'rib chiqamiz (3.1.18-jadval):

### 3.1.18-jadval

#### Predmetli kompetensiya ga oid husnixat mezoni

Kompetensiya	Mezon	Indikator	Deskriptor	Baholovchi vosita	Fan
PrK -	PrK-1	PrK-1.1	PrK-1.1.1	diktant	Husnixat

Predmetli kompetensiya	xusnixat	xusnixat ga egalik	*maksimal - yozuv xusnixat qoidalariga muvofiq	PrK-1.1.2 *o'rtacha - ba'zi xusnixat qoidalari buziladi	PrK-1.1.3 *minimal - yozuv xusnixat qoidalariga zid	o'rgatish meodikasi
------------------------	----------	--------------------	--	---	---	---------------------

Tajriba boshida biz talabalardan husnixat ko'nikmalarini tekshirish maqsadida diktant oldik. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ushbu indikatori Tajriba guruhida tajribadan avval va keyin (3.1.14 - rasm) qanday rivojlanganligini diagrammada ko'rsatamiz:


Tajriba sinov davomida biz talabalarga husnixat malakalarini rivojlantiruvchi turli vazifalar berdik:

motivatsiyani kuchaytirish maqsadida husnixatga oid ilmiy videoroliklarni ko'rishni tavsija qildik, masalan Tatyana Chernigovskayaning sahfalarini (<https://youtu.be/njDvxinF8hs>), Pyotr Petrovich Chebitkoning sahfalarini (<https://youtu.be/6oapt15bczl>);

husnixat mashqlarini bajarish - ijroviy komponent; o'zaro tajriba almashuvga xizmat qiluvchi turli tadbirlar, tanlovlardan hamkorlik komponenti;

o'z yozuvini tahlil qilish va xatolarining sabablarini o'rganish, korreksion mashqlarni bajarish – refleksiv komponent;

yozuvni yaxshilashga doir o'zining shaxsiy tajribasiga asoslanib mashqlar, vazifalar ketma-ketligini tuzish – mualliflik komponenti.



### 3.1.14 - rasm Tajriba guruhida tajribadan avval va keyingi holat

Tajriba-sinov davrida yuqorida keltirilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish uchun "Rivoj" innovatsion klaster muktabida maslahat va mahorat darslari tashkil etildi. Hamkorlik asosida "Tayanch" muktablarning ilg'or tajribalari kuzatildi. Natijada kasbiy kompetentlik tarkibiga kiruvchi husnixat mezoni talabalarda ijobjiy tomonga o'zgardi.


Bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi kasbiy kompetentligi rivojlanishining umumiy ko'rinishi:

1. TIM "Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi".
2. So'rovnomasi.
3. Kasbiy standart ramkasini o'rganish.
4. Kasbnoma tuzish.
5. Kompetensiyalar matritsasini ishlab chiqish.
6. Kompetensiyalar indikatori va deskriptorlarini ishlab chiqish.
7. Shaxsiy kompetentlik kundaligini yuritish asosida o'z ustida ishslash.

8. Portfolio tuzish.

9. Hisobot berish.

Mazkur algoritmnинг har bir bosqichida professor o'qituvchilari va boshlang'ich ta'lif ustozlari boshchiligidagi talabalar bilan konsultatsiya va korreksiya ishlari olib boriladi(3.1. 15 - rasm).



### 3.1. 15 - rasm - Kompetensiyaviy model

Mazkur algoritmgaga muvofiq ishni talabaga kompetentsiya va kompetentlik haqida bilim berishdan boshladik. "Kompetentsiya va bilim o'rtasidagi farq nimada?" savoliga analogiya metodidan foydalaniib talabalardan javob oldik: urug' va don, un va non, elektrotok va mikropech... va h.k. Kompetentsiya va kompetentlikni farqlash, kasbiy kompetentlik komponentlarini aniqlash asosida maxsus dastur ishlab chiqildi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali talabaning ehtiyoji va imkoniyatlari hisobga olinib, ushbu dastur pedagogik ta'lif innovatsion klasteri(PTIK) loyihasi asosida tuzildi. Dasturda ko'zlangan har bir ish yuzasidan faoliyat xaritasi tuziladi. Faoliyat xaritasida harakatlar ishlab chiqildi. Harakatlar asosida yosh o'qituvchilar muktablari tuziladi, masalan, "Kreativlik" muktabi, "Innovatsion interfaollik" muktabi, "Mantiq" muktabi va h.k. ushbu muktablarda mualliflik yo'nalishlarga asos solindi. Natijada, kompetentli mutaxassis tarbiyalandi.

Tajriba guruhida tadqiqot davomida 176 nafar talaba qatnashdi. Kompetentlik darajalarini aniqlash bo'yicha bo'lajak

o'qituvchilar uchun shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida maxsus "Kasbiy kompetentlik mezonlar setkasi" (ilova 2) ishlab chiqildi. Olib borilgan ishlarimiz natijasi ushbu jadvalda ko'rsatilgan (3.1.19-jadval):

### 3.1.19-jadval

DARAJA	Bosqich	Natija	Foiz
STANDART	etalonga mos talab - me`yor	OTM standarti doirasida pedagogik faoliyat ko'rsatuvchi BBTO' - test	176-100%
ALGORITMIK	shaxsiy indikator ko'rsatma - reja	"Kasbiy kompetentlik ramkasi"da belgilab qo'yilgan kompetensiyalar algoritmi - kurs ishi, mustaqil ta'lim	156-89%
EVRISTIK	shaxsiy deskriptor dastur-innovatorlik	"Kompetensiya matritsasi"da belgilab qo'yilgan kompetensiyalarga o'zgarishlar kiritish - tezis	132-75%
MUALLIFLIK	yangi mezonlar loyiha - novatorlik	shaxsiy ishlab chiqilgan yechimlar, mualliflik g'oyalari - ilmiy maqola, BMI	120-68%

